

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ ★ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

ONALAR E'ZOZDA

Jamiyat taraqqiyotida,
farzand tarbiyasida,
mamlakat tinchligi va
barqarorligida ayollarning
o'rni beqiyos. El-yurt
osoyishtaligini ta'minlash
yo'lida fidoyilik bilan
xizmat qilayotgan
farzandlarni tarbiyalab,
kamolga yetkazgan
onalarga Ichki
ishlar vazirligi
tomonidan ehtirom
ko'rsatilyapti.

➡ 10



YANGI IMKONIYATLAR ESHIGI

Mamlakatimizning boshqa hududlarida bo'lgani kabi, Qashqadaryo viloyatida ham «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbiri zo'r uyushqoqlik bilan o'tkazilmoqda. Tadbir doirasida, jumladan, viloyatning Yakkabog' tumanida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Yaqinda tumandagi «Istiqbol» oziq-ovqat va dehqon bozori hududida tadbirkorlar ishtirokida amaliy seminar tashkil etildi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash va tadbirkorlik subyektlari mulkini himoya qilishga qaratilgan seminarda tuman hokimligi, Ichki ishlar bo'limi rahbariyati, sohaviy xizmatlar mas'ullari hamda bozorda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar ishtirok etdi.

➡ 10



Chilonzor tajribasi

O'RGANISHLAR O'ZGARISHLAR SARI

Ichki ishlar vaziri general-leytenant Aziz Tashpulatov tomonidan sohaviy xizmat mas'ullari, poytaxt IIBB rahbariyati hamda Chilonzor tumani mu-tasaddilari ishtirokida xavfsiz muhitni shakllantirish va jamoat xavfsizligini ishonchli ta'minlash masalalari yuzasidan tanqidiy yig'ilish o'tkazildi.



Yig'ilishda poytaxt hududida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, aholi tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Toshkent shahrida o'tkazilgan tanqidiy selektor yig'ilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning ijrosi ham atroflicha muhokama etildi.

Xususan, Chilonzor tumanidagi mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish, ularni jinoyatdan holi hududga aylantirish, profilaktika ishlarini kuchaytirish va aholi bilan muloqotni yanada faollashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, transport vositalari harakatini tartibga solish, piyodalar uchun qulay va xavfsiz sharoit yaratish masalalari ham muhokama qilindi. Shu bilan birga, bozorlar va savdo majmualari atrofida tartib-intizomni ta'minlash, noqonuniy savdo holatlarining oldini olish, aholiga yanada qulay sharoitlar yaratish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

Tadbir davomida uyushgan jinoyatchilik, narkojinoyatlar hamda kiber-jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalariga ham alohida to'xtalib o'tildi. Bu kabi jinoyat turlarining oldini olishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, tezkor-qidiruv tadbirlarini kuchaytirish va profilaktik chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish muhim ekani qayd etildi.

Shuningdek, poytaxtda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha shakllantirilgan ilg'or tajriba – «poytaxt namunasi»ni Chilonzor tumanida to'liq joriy etish, bu orqali hududda xavfsiz muhitni yanada mustahkamlash va aholining huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo'lgan ishonchini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

O'rganishlar davomida Chilonzor buyum bozorida «Raqamli va xavfsiz bozor» tamoyili asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan tanishildi.

Xususan, bozorga xizmat ko'rsatuvchi Ichki ishlar bo'limi binosi kapital ta'mirlanib, yaqin kunlarda boshqaruv markazi tashkil etiladi. Bu orqali bozordagi tezkor vaziyat doimiy nazorat qilinadi.

Shuningdek, bozorda «elektron billing tizimi» va sun'iy intellekt kameralari joriy etilmoqda. Ushbu tizim savdo rastalari va narxlarni monitoring qilish, soliqlardan bo'yin tovlash va noqonuniy yig'imlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Toshkent shahri Chilonzor tumani-ga tutash hudud hisoblangan Toshkent viloyati Zangiota tumani IIB faoliyati o'rganildi. O'rganishlar davomida hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tanqidiy tahlil qilindi.

Xususan, «Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor-profilaktik tadbirlari doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlar, profilaktika ishlarining samaradorligi hamda ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyati ko'rib chiqildi.

Shuningdek, shaxsiy tarkib bilan xizmat oldi yo'riqnomasi o'tkazilib, jamoat xavfsizligini ta'minlash, aholi osoyishtaligini saqlash va xizmat vazifalarini vijdonan bajarish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, jinoyatchilikka qarshi kurashish va profilaktika ish-

larini kuchaytirish maqsadida og'ir toifaga kiruvchi «Zarqo'rg'on» mahallasi o'rganildi. Tahlil jarayonida mahalladagi jinoyat o'choqlari atroflicha ko'rib chiqilib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.

O'rganishlar davomida profilaktika inspektorlari, qo'riqlash bo'linmalari hamda post-patrul xizmati rahbarlariga mahallada jinoyatchilikning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va profilaktika tadbirlarini yanada kuchaytirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi, profilaktika ishlarining samaradorligini oshirish, aholi bilan muloqotni kuchaytirish hamda hududda xavfsiz muhitni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Chilonzor tumanida mas'ul rahbarlarga belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, har bir mahallada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi. Ta'kidlanganidek, aholi osoyishtaligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlar izchil davom ettiriladi.



«Xavfsiz va sog'lom yurt»

Chekka hududda

OSOYISHTALIKKA NIMA YETSIN

Oylik doirasida Sirdaryo viloyatida ham uchrashuvlar, davra suhbatlari, tezkor profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda. Bunda huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, jamoat tartibini hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Jumladan, viloyat IIB JXX Probatsiya bo'limi tomonidan Guliston shahridagi Kasbiy ko'nikmalar markazida nazorat ostidagi shaxslar uchun «Bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi» tashkil etildi. Unda Markaz rahbariyati ishtirokchilarga mavjud bo'sh ish o'rinlari haqida batafsil ma'lumot berib, ularni qiziq-tirgan savollarga javob qaytarishdi. Natijada probatsiya hisobida turadigan shaxslardan 12 nafari ishga joylashtirildi, bir nafari esa kasbga o'qitish kurslariga yo'llanma oldi.

Xovos tumani IIB xodimlari mahallalardagi ijtimoiy muhitni o'rganib, ayniqsa, nizoli oilalar bilan manzilli ish olib bormoqda. Xususan, «Do'stlik» mahallasida yashovchi nizoli oilalar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi. Mahalla faollari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan bunday suhbatlar orqali oilalardagi kelishmovchiliklar sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari ko'rildi.

– Har bir nizoli oilaga alohida yondashamiz, – deydi Xovos tumani IIB HPB XQMB katta inspektori, katta leytenant Mahliyo Hamroyeva. – Nizolarning barcha qirralari o'rganib chiqiladi. Tomonlar diqqat bilan tinglanadi. Shundan keyingina nuroniylar ishtirokida ularga zarur tavsiyalar beriladi.

Xovosning «Tinchlik» mahallasida ham tuman IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limi tomonidan tadbir tashkil etildi. Unda mahalla yettiligi a'zolari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar va boshqalar ishtirok etdilar. Muloqot davomida jamoat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning mol-mulkini ishonchli

qo'riqlash, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida xavfsizlik choralarini kuchaytirish, favqulodda holatlarning oldini olish kabi masalalar yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

Sirdaryo tumanida Yarashtirish komissiyasi a'zolari hamkor tashkilotlar bilan birgalikda sudlarda nizolashayotgan, ajrim yoqasiga kelib qolganlar bilan profilaktik suhbat o'tkazdi. Muloqot davomida oila muqaddasligi, farzand tarbiyasi, ajrimning salbiy oqibatlari haqida dunyoviy, diniy, huquqiy va psixologik tushunchalar berildi. Natijada uchta nizoli oilaning yarashishiga erishildi.

Oqoltin tumani IIB tomonidan uyushtirilgan tadbirda ham aynan sudlarda nizolashayotgan oilalar bilan profilaktik suhbat o'tkazildi. Tadbirda tuman IIB XQMB katta inspektori, tuman hokimining oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari, Nuroniylar kengashi vakillari qatnashdi. Suhbatlarda mehroqibat, sabr-toqat, o'zaro hurmat muhim ekani alohida ta'kidlandi. Natijada ikkita oilaning janjallari bartaraf etildi. Endilikda ularning ishi sudda ko'rilmaydi.

Bu kabi tadbirlar orqali mahallalarda sog'lom muhit shakllanib, fuqarolarning qonunlarga bo'lgan hurmati yanada ortib bormoqda. Eng muhimi, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik va barqarorlik ta'minlanib, aholi o'zini xavfsiz, bexavotir his etmoqda.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Ish to'g'ri yo'lga qo'yilgan joyda hamisha ijobiy natijaga erishiladi. Buni Turkmaniston Respublikasi bilan chegara hududida joylashgan Olot tumani IIB Migratsiya va Fuqarolikni rasmiylashtirish guruhi xodimlari faoliyati misolida ham ko'rish mumkin.

– Tumanimiz viloyatning chekka va chegara hududi hisoblanadi. Shu bois xorijga chiquvchi va keluvchilar boshqa tumanlarga qaraganda bizda ko'p uchraydi. Tabiiyki, pasport tizimi qoidasini buzuvchilar ham salmoqli bo'ladi, – deydi guruh katta mutaxassisi, kapitan Asrorjon Hasanov. – Shunisi quvonarliki, sohaviy xizmatlar, mahalla faollari hamda jamoatchilik vakillari bilan hamjihatlikda olib borayotgan targ'ibot ishlarimiz, qolaversa, hamkorlikda o'tkazilayotgan turli profilaktik tadbirlarning natijasi samarali bo'lyapti.

Xizmat xodimlari tomonidan shu yilning ikki oyi davomida 3579 nafar fuqaroga ID-karta, 574 nafariga esa xorijga chiqish pasporti rasmiylashtirib berilgan. Shuningdek, 16 yoshga to'lgan yigit-qizlarga ID-kartalarni «Rahbar va yoshlar uchrashuvi»da tantanali ravishda topshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qolaversa, 16 nafar imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan hamda salomatligi tufayli xizmat binosiga kelolmayotgan fu-

soha vakillarining vazifasi faqatgina pasport berishdan iborat emas. Ular o'z hududlaridagi pasport tartibotini nazorat qilishadi, yoshlarga pasport qoidalarini bo'yicha tushuntirishlar berishadi. Shuningdek, tadbirlarda ham faol ishtirok etib, ro'yxatdan o'tmagan, pasportlarining amal qilish muddati tugagan va vaqtinchalik ro'yxatdan o'tmay yashayotgan fuqarolarni aniqlashga ham e'tibor qaratishyapti. Mazkur tadbirlar davomida pasport tizimi tartib-qoidalarini yaxshi bilmaydigan fuqarolar bilan suhbatlashib, ularga o'z huquqlari hamda majburiyatlarini tushuntirib borishyapti. Biroq ataylab qoidani buzgan ayrim fuqarolarga ma'muriy javobgarlik choralari ko'rilmogda. Misol uchun aytadigan bo'lsak, o'tgan oylar ichida tumanda istiqomat qilayotgan 2 nafar fuqaro pasportsiz yashab yurganligi, 243 nafar fuqaro pasportining amal qilish muddati tugaganligi, 98 nafar fuqaro pasportini yo'qotganligi sababli ma'muriy javobgarlikka tortildi.



qaroning uylariga borib, ID-kartalar rasmiylashtirib berildi.

Bundan tashqari, 774 nafar fuqaro yashash joyi bo'yicha doimiy, 11 nafar fuqaro esa yashab turgan joyida vaqtincha ro'yxatga olindi. 139 nafar xorijiy fuqaro vaqtincha ro'yxatga qo'yilib, 41 nafar xorijlik fuqaroga O'zbekiston Respublikasida yashovchi qarindoshlari orqali chaqiruv xati berildi. Hozirgi kunga qadar qo'shni Turkmaniston davlatidan kirib kelib, vaqtincha ro'yxatdan o'tmasdan yashab kelayotgan 16 nafar fuqaro aniqlanib, 8 nafari deportatsiya qilindi, qolganlari jarmaga tortildi.

O'tgan oylar davomida tuman hududiga MDH davlatlaridan kelgan 123 nafar fuqaro vaqtinchalik ro'yxatga olindi. Yana 18 nafar MDH fuqarosining vaqtinchalik qayd muddati uzaytirib berildi. Qolaversa, ular bilan profilaktik suhbatlar va tekshirishlar o'tkazib kelinmoqda.

Qisqasi, pasport tartiboti – hayotimiz osoyishtaligi garovi. Amaldagi tartib-qoidalariga barcha birdek amal qilishi shart. Buni aslo unutmashimiz lozim.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Запечатленное время

КОГДА СЕКУНДЫ РЕШАЮТ ВСЕ

7 мая 1988 года капитан милиции Нурмат Шерматов не колебался ни мгновения – он просто шагнул в густой дым и пламя. Пожар, вспыхнувший в доме №14 по улице Кирова города Куvasая, мог обернуться трагедией.

...Участковый инспектор капитан Шерматов проходил мимо дома, когда увидел черный дым, валивший из окон одной из квартир. На балконе в отчаянии металась женщина – мать, чьи дети остались в огненной ловушке.

В квартире произошло то, чего больше всего боятся родители: в результате замыкания вспыхнул телевизор «Янтарь». Пламя перекинулось на шторы и мебель. В панике пятилетний Илья и трехлетняя Марина не смогли найти выход. Они забились в угол, дрожа от страха.

Не дожидаясь пожарных расчетов, капитан Шерматов бросился в горящее помещение. Он понимал: счет идет на секунды. Как позже напишет газета «Ферганская правда», «действовал умело и решительно, вынес из огня двух малолетних детей». Скупно отвечая на вопросы журналистов, Нурмамат


сказал: «Я и сам рад, что все так обошлось. Дети... уже задыхались от дыма». Он не считал себя героем, просто сделал то, что должен был сделать человек в погоне. После спасения детей присоединился к работе прибывших пожарных, помогая локализовать огонь...

Этот эпизод – лишь одна из страниц службы героя очерка. Путь в ОВД он

ру на ответственном посту старшего оперативного дежурного Куvasайского ГОВД.

Сегодня майор в отставке Н. Шерматов на заслуженном отдыхе, но его энергия не угасла. Он активный участник ветеранского движения. В беседах с молодыми сотрудниками он передает нечто большее, чем просто служебный опыт. Для него настоящий профессионализм – не только знание законов, но и готовность первым прийти на помощь.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.
Ферганская область.



Безопасная среда

ПРЕДУПРЕЖДЕН – ЗНАЧИТ ВООРУЖЕН

В условиях роста новых вызовов важно научить молодежь вовремя распознавать опасность и твердо говорить ей «нет».



В Ташкентском государственном техническом университете им. Ислама Каримова состоялось мероприятие на тему «Борьба с распространением наркомании и психотропных веществ в молодежной среде».

Встреча прошла в формате диалога. Перед аудиторией выступили первый проректор по

духовно-просветительской работе и вопросам молодежи Ю. Абсатов, начальник отдела службы уголовного розыска ГУВД города Ташкента подполковник Э. Давлатов, начальник отдела уголовного розыска УКД ОВД Алмазарского района майор Ш. Кодиров и др.

Выступавшие подчеркнули, что среди молодежи наблюдается

тревожный рост распространения синтетических наркотиков. Специалисты разъяснили – «химия» несет необратимые последствия для организма. Она стремительно разрушает память и психику, вызывая привыкание практически с первого употребления. Каждое предостережение эксперты иллюстрировали случаями из практики,



показывая, как одна ошибка может навсегда перечеркнуть будущее.

Сотрудники ОВД особое внимание уделили юридической стороне вопроса: за преступления, связанные с незаконным оборотом запрещенных веществ, предусмотрена суровая ответственность. Они напомнили: цифровая анонимность в мессенджерах – опасная иллюзия. Правоохранительные органы обладают инструментами для вычисления как распространителей, так и покупателей.

В ходе встречи обсуждались и способы защиты от манипуляций в социальных сетях.

Завершая встречу, организаторы призвали молодежь к самореализации через науку, спорт и творчество. Основной посыл был прост и понятен: в решающий момент важно выбрать путь полноценной жизни.

Соб. корр.

Правовая пропаганда

НА СТАРТЕ
ПЯТЫЙ ЭТАП

Постановлением Кабинета Министров от 3 марта 2026 года в Узбекистане утверждена «Дорожная карта» по реализации пятого этапа Всемирной программы образования в области прав человека. В числе основных направлений – глубокая интеграция правовых стандартов в систему подготовки кадров, в том числе для силовых структур.

«Дорожной картой» предусмотрено проведение открытых конкурсов на зарубежное обучение и повышение квалификации в сфере правового образования. Инициированы меры поддержки научно-исследовательских проектов, направленных на решение прикладных задач в данной сфере. Отдельный аспект – внедрение практики ежегодного проведения в декабре «Недели прав человека».

Особое внимание уделено разработке и внедрению в образовательный процесс высших военных и военизированных учебных заведений программы «Права человека». При этом акцент будет сделан на непрерывности обучения – от подготовки курсантов до повышения квалификации офицеров, – говорит профессор Академии МВД Узбекистана, доктор юридических наук Алимжан Матчанов. – Кроме того, для инспекторов профилактики запланирована организация целевых семинаров-тренингов на тему «Права человека: международные стандарты и национальное законодательство». Цель – дать сотрудникам органов правопорядка практические инструменты для эффективного предупреждения и пресечения правонарушений при строгом соблюдении законности.

Соб. корр.

Для справки. Всемирная программа образования в области прав человека разработана в 2004 году и реализуется поэтапно. На первом этапе в 2005–2009 годы акцент был сделан на школах. На втором, с 2010 по 2014 год, – на высших учебных заведениях и подготовке педагогов, госслужащих и военных, на третьем, 2015–2019 годы, – на представителях СМИ, а четвертый этап, с 2020 по 2024 год, был посвящен молодежи.



Ochiq muloqot

ERTANGI KUNGA UMID BILAN

Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azm-u shijoatingizga suyanamiz.

Shavkat MIRZIYOYEV

So'nggi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mamlakatimizda yoshlar masalalari davlat siyosati darajasigacha ko'tarilib, ushbu yo'nalishga e'tibor naqadar muhim ekanligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov ishtirokida bo'lib o'tgan yoshlar bilan uchrashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad ham yoshlarni qiynayotgan muammolarni o'rganish, ularning taklif va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, jamiyatda faol, qonunga hurmat ruhida tarbiyalangan avlodni shakllantirishdan iborat bo'ldi.



Vazir yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik natijasi o'laroq, ertamiz umidlari ilm-fan, madaniyat, sport sohasida mamlakatimiz dovrug'ini yuqoriga ko'tarish maqsadida astoydil harakat qilishayotgani, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, huquqbuzarlik va salbiy ta'sirlardan himoya qilish, ta'lim va bandlik masalalarini hal etish bo'yicha ulkan tashabbuslar ilgari surilayotgani hamda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida atroflicha ma'lumot berdi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining Ko'ksaroy qarorgohida yoshlar bilan bo'lib o'tgan muloqotida yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuch ekanini, barcha darajadagi rahbarlar yoshlarni til va kasb-hunarga o'rgatish, sportga jalb etish, g'oya, loyiha hamda startaplariga ko'mak berish, ularni ishli va daromadli qilish bo'yicha yanada faol ishlashi, birorta yigit-qizni e'tiborsiz qoldirmaslik zarurligi qayd etganligini alohida ta'kidladi.

Shu bilan birga, yoshlarimiz jahon fan olimpiadalarida 66 ta oltin, 147 ta kumush, 221 ta bronza medalni qo'lga kiritgani, xorijdagi nufuzli oliygohlarda tahsil olayotgan talaba yoshlari-

miz 500 nafardan, TOP-100 ta-likdagi oliygohlarda o'qiyotgan yigit-qizlarimiz 3,5 ming nafardan oshganligi, yoshlarimiz yaratgan 63 ta startap loyihasi AQSH, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Birlashgan Arab Amirliklari bozorlariga kirib borganligini, yosh sportchilarimiz xalqaro arenalarda 720 ta oltin, 671 ta kumush, 854 ta bronza medalning sohibi bo'lganligini, navqiron tadbirkorlar yurtimizdagi biznes vakillari-ning 35 foizini tashkil etganligini faxr bilan aytib o'tdi.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan uchrashuvda general-leytenant A.Tashpulatov yoshlarning turli sohalarga oid taklif va tashabbuslarini tingladi hamda ularning bandligini ta'minlash, kasb-hunarga

yo'naltirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda yoshlar bilan manzilli ishlash tizimini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Ichki ishlar vazirligi tomonidan poytaxt tumanlarida yoshlar bilan ishlash tizimini sa-

marali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida «Yoshlar balansi» shakllantirilib, jami 13 ta shtab faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, tuman ichki ishlar organlaridan 84 nafar rahbarga 815 nafar yigit-qiz nomma-nom biktirilib, ular bilan manzilli ishlash, muammolarini o'rganish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish amaliyoti hamda monitoring mexanizmlari joriy etildi.

– Vazir bilan muloqot juda samarali va samimiy bo'ldi, – deydi taniqli yoshlar murabbiysi, biznes-trener va motivator Muhammadali Eshonqulov. – Jarayonda faol va tashabbuskor yoshlarning takliflari alohida e'tirof etildi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tegishli vazifalar belgilab olindi.

Shuningdek, Probatsiya hisobida turuvchi bir guruh yoshlar o'zlarini qiynab kelayotgan muammolar bilan o'rtoqlashdi, yechimini topmay kelayotgan masalalarga mutasaddi rahbarlar tomonidan kerakli tavsiyalar berildi.

– Yoshim 25 da, – deydi Mirshod Ismoilov. – Yakkasaroy tumani IIOFMB Probatsiya hisobida turaman. Bugungi muloqotda ichki ishlar organlarida kiberxavfsizlik yo'nalishida g'oya va takliflarimni bildirdim. Ichki ishlar vazirligining mutasaddi rahbarlari meni qo'llab-quvvatlashini, amaliy yordam berishini aytishdi.

Uchrashuv yakunida yoshlar mamlakat taraqqiyoti, yurt tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda faol ishtirok etishga tayyor ekanini bildirishdi.

Azizjon FAYZIYEV,
podpolkovnik.



Qalqon bor – qal'a but, qo'rg'on – salomat

Kun botib, shahar uzra oqshom cho'kkanda, chiroqlar o'chib, minglab yurtdoshlarimiz shirin uyqu og'ushiga ketganda ham, kimlardir hali-hamon sergak, kimlardir esa hamon ostonada mahkam turibdi.

Bugun Namanganning har bir mahallasida, har bir ishlab chiqarish obyektida «Sifat, ishonch, xavfsizlik» tamoyili shunchaki jarangdor shior emas, balki hayotiy zaruratga aylandi.

Xo'sh, bugun ushbu ezgu tamoyil viloyatimiz hududida qanday ifoda topmoqda? Viloyat IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati xodimlarining sergak nigohi va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligi Namangan tinchligiga qanday hissa qo'shmoqda?



DAVR BILAN HAMQADAM

Ilgari «qo'riqlash» deganda, ko'z oldimizda faqat darvoza oldida turgan posbon gavdalanardi. Bugun esa bu tushuncha tarixga aylanadi. Zamonaviy qo'riqlash tizimi nafaqat inson omili, balki yuqori texnologiyalar va tezkor harakatlanuvchi guruhlarining yaxlit, mustahkam zanjiridir.

Davlatimiz rahbarining sohani isloh qilishga doir qarorlari tizim zimmasiga ulkan mas'uliyat yukladi.

Qo'riqlash xizmati tomonidan olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar va tizimli targ'ibot ishlari fuqarolar ongida muhim bir haqiqatni shakllantiriyapti: mulk daxlsizligi – taraqqiyot va oilaviy baxtning poydevoridir. Bugun tadbirkorlar va oddiy fuqarolarning tizimga bo'lgan ishonchi keskin ortganini quruq so'zlar emas, balki salmoqli raqamlar isbotlab turibdi.

Viloyatda birgina xalq xo'jaligi va xususiy sektor yo'nalishida yangidan qo'riqlovga olingan obyektlar soni 4 537 taga ko'paygani diqqatga sazovor. Bu raqamlarning o'sishi natijasida umumiy ko'rsatkich 5 762 tadan 10 299 taga yetdi. Bu viloyat iqtisodiyotining qariyb har bir bo'g'ini, har bir korxona va insho'oti ishonchli «qalqon» ostiga olinganidan dalolatdir. Bu minglab ish o'rinlari va millionlab sarmoyalarning professional himoyasi demakdir.

Yangi qo'riqlovga olingan 3 060 ta xonadon hisobiga jami ko'rsatkich 7 672 taga yetdi. Ko'rsatilgan raqamlar ortida minglab oilalarning xotirjamligi yotibdi.

VAQT BILAN POYGA

Viloyat bo'ylab tezkor harakatlanuvchi guruhlar sonining 35 tadan 42 taga oshirilishi shunchaki sonlar o'zgarishi emas. Bu viloyatning eng chekka nuqtasidan kelgan «tashvishli» signalga ham sanoqli daqiqalar ichida yetib borish, xavfning yo'lini to'sish va vaziyatni to'liq nazoratga olish imkoniyatidir.

Tizimning naqadar talabgir va hayotiy ekanini o'tgan yilning 1 aprelidan yil yakunigacha bo'lgan davrdagi ko'rsatkichlar yaqqol isbotlaydi: obyektlar salmog'i 818 tadan 1 917 taga yetdi. Bir yilga yetmagan vaqt ichida 1 099 ta yangi obyektning qo'shilishi xalqimiz va tadbirkorlarimiz o'z taqdirini professionallarga ishonib topshirayotganining mahsulidir. Texnik qo'riqlov yo'nalishida ham o'sish sur'atlari yuqori – obyektlar soni 8 382 taga, fuqarolar xonadonlari esa 7 672 taga yetkazildi.

YUKSAK MAS'ULIYAT

O'tgan yil davomida viloyat bo'yicha qayd etilgan 4 355 ta o'g'rilik jinoyatining fosh etilishi va oldi olinishida ushbu tizimning hissasi beqiyos bo'ldi. Bu raqamlar ortida yuzlab jinoyatlarining bartaraf etilishi va minglab fuqarolarning mulki omon qolgani yotibdi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 36 ta moddasi bo'yicha berilgan yangi vakolatlar soha xodimlari uchun nafaqat huquqiy kuch, balki yuksak mas'uliyatdir.

Yil davomida aniqlangan 2 046 ta huquqbuzarlik holati jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlashga xizmat qildi. 189 ta holatda mulkni talon-toroj qilishga chek qo'yilib, 55 million so'mlik boyliklar o'z egalariga qaytarildi. Bu esa tizimning «inson qadri uchun» degan olijanob g'oyaga sodiqligining isbotidir.

O'tgan davrdagi 62 ta jinoiy holatning fosh etilishi, jumladan, 30 nafar qidiruvdagi xavfli shaxsning qo'lga olinishi, 26 ta giyohvandlik moddalari aylanishiga chek qo'yilishi viloyatimizdagi jinoyatchilik zanjirini uzib tashladi. Zero, qo'lga olingan har bir jinoyatchi sodir etilgan qolgan navbatdagi jinoyatning, asrab qolingan navbatdagi taqdirning garovidir.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Kasb fidoyilari

TERAN NIGOHLILAR

Qarshi shahrida faoliyat ko'rsatuvchi mas'uliyati cheklangan jamiyat rahbari viloyat IIBning «112» xizmatiga murojaat qilib, korxona omborxonasidan 10 qop ammos mineral o'g'iti o'g'irlab ketilganini bildirgan. Holat yuzasidan voqea joyiga tergov-tezkor guruhi chiqarilib, jinoyatni fosh etish tadbiri e'lon qilinadi.

Jinoyat tezkorlikda fosh qilindi. O'g'rilik sodir bo'lgan hududda xizmat olib borayotgan viloyat IIB JXX JTSB patrul-post xizmati batalyoni xodimlari – safdorlar Sh.Bozorov va Sh.Ro'ziyev omborxona orqa devorining tashqi tomonida ammos qoplarini olib ketayotgan uch kishini ushlashdi.

Dastlabki surishtiruvlarda mazkur jinoyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat ishchilari – Ch.B., S.O. va Z.D. sodir etgani aniqlandi. Ulardan 10 qop ammos mineral o'g'iti hujjatlashtirib olindi. Hozir holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilyapti.

– Safdorlar Shahzod Ro'ziyev va Shahboz Bozorov o'z kasbining ustasi. Ular ko'plab huquqbuzarlik va jinoyatlarni fosh etib, hamkasblariga o'rnak bo'lmoqda, – deydi batalyon komandirining

ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, mayor Umid Mallayev. – O'z ustida ishlashni kanda qilmaydigan bu xodimlar yoshlarga kasb sirlarini o'rgatishda ham faol.

...Yana bir kun ortda qoldi. Bu – oddiy xizmat kuni emas, balki kasbiy mahorati, mas'uliyati va Vatan tinchligi yo'lidagi fidoyiligini namoyon etgan xodimlar jasoratidir. Osoyishta hayotimiz ortida ana shunday teran nigohli insonlar turibdi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

QADIM QADRIYATLAR TAROVATI

21-mart – Navro'z umumxalq bayrami

Navro'z insoniyat tarixidagi eng qadimiy bayramlardan biri hisoblanadi. Tarixchilarning fikricha, bu bayram kamida uch ming yillik tarixga ega. U ilk bor qadimgi sharq sivilizatsiyalari davrida paydo bo'lgan va asrlar davomida Markaziy Osiyo, Eron, Kavkaz, Yaqin Sharq va boshqa ko'plab hududlarda yashovchi xalqlar tomonidan keng nishonlab kelingan.

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk», Umar Hayyomning «Navro'znoma», Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», Hakim Termiziyniing «Solnoma», Abu Bakr Narshaxiyniing «Buxoro tarixi» asarlarida Navro'z haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, ulug' ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy Quyosh yili hisobida yilning dastlabki oyi to'g'risida so'zlar: «Bu oyning birinchi kuni Navro'zdir», deb yozadi. Shuningdek, alloma Navro'zni koinot va olam bilan bir butunlikda, deb ta'riflaydi.

Tarixchi olim Abu Bakr Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida Navro'z kuni Siyovush qabri boshida odamlar jonliq so'yishlarini va bunga uch ming yildan ortiqroq vaqt o'tganini yozadi.

Yusuf Xos Hojib esa «Qutadg'u bilig» asarida shunday deydi: «Sharqdan bahor nasimi esib keldi, olamni bezamoq uchun firdavs yo'lini ochdi. Oq rang ketib, bo'z yerni alvon rang qopladi, olam o'ziga oro berib bezanmoq taradudiga tushdi. ...Quyosh yana qaytib o'z o'rniga keldi, Baliq (Hut) dumidan Qo'zi (Hamal) burjiga ko'chdi».

Darhaqiqat, Navro'zning paydo bo'lishi quyoshning Hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi hamda kunduzning uzaya boshlashi kabi tabiat qonuniyatlari bilan bog'liq bo'lib, bu qadim bayramning ilmiy asoslarga ega ekanidan dalolat beradi.

Taassufki, bebaho umuminsoniy qadriyatlarni tarannum etgan Navro'z bayramiga munosabat doim ham bir xil bo'lmagan. Turli davrlarda bu ulug' ayyom tazyiqlarga uchragan. Xususan, sobiq Ittifoq davrida Navro'zni bayram sifatida nishonlash rasman taqiqlab qo'yilgan.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti tashabbusi va jasorati bilan hali mustabid tuzum hukmron bo'lib turgan davrda Navro'z qayta tiklandi. 1990-yil 3-maydagi farmonga muvofiq, Navro'z umumxalq bayrami, 21-mart dam olish kuni, deb e'lon qilindi.

2009-yilda Navro'z bayrami UNECKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 2010-yilda BMT Bosh Assambleyasining 64-ses-



siyasi 21-martni «Xalqaro Navro'z kuni» sifatida nishonlash to'g'risidagi qarorni bir ovozdan qabul qildi. Qabul qilingan rezolyutsiyada mazkur bayramning xalqlar o'rtasida madaniy aloqalar va o'zaro hamjihatlikni rag'batlantirishda, do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida qayd etildi.

Navro'z mehr-oqibat, bag'rikenglik, ahillik, yangilanish va yasharish, tabiat bilan uyg'un yashash kabi yuksak insoniy qadriyatlar tarovatidir. Bayram arafasida va bayram kunlari ko'plab xayrli ishlar, ezgulikka hamohang urf-odatlar amalga oshiriladi. Chunonchi, qarindosh-urug'lar yo'qlanadi, keksalar, bemorlar holidan xabar olinadi, yordamga muhtojlarga muruvvat ko'rsatiladi, yordam beriladi. Odamlar orasidagi gina-kuduratlar unutiladi. Shu tariqa, bayram insonlarni birlashtiradi, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Navro'z – yangilanish, poklik ramzi. Yangi yil – go'zal bahor kelishi bilan ona tabiat uyg'onadi. Yon-atrofdagi bemisil darajadagi yasharish va yangilanishlar ro'y beradi. Bunga uyg'un holda, inson ruhiyatida ham ana shunday o'zgarishlar, poklanishlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

zo'r uyushqoqlik bilan, ko'tarinki kayfiyatda o'tkaziladi. Madaniy tadbirlarda milliy kuy-qo'shiqlar yangraydi, o'lanlar, yallalar aytildi. Bu esa yosh avlodni qadriyat va an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Asrlar qa'ridan omon chiqqan Navro'z mustaqillik davrida, ayniqsa, so'nggi yillarda mazmunan yanada boyidi, xalqimizning qadim madaniyati, ezgu fazilatlarini timsoliga aylandi. Uning ruhi va mohiyatida mujassam bo'lgan borliqni asrab-avaylash, mehr-oqibat, xayr-u saxovat, bunyodkorlik, bag'rikenglik, do'stlik va hamjihatlik singari yuksak g'oyalar bugun yanada teran mazmun kasb etib borayotir. Boshqacha aytganda, yurtimizda farovon hayot barpo etish, inson qadriyatini ulug'lash-



Bayram kunlarida ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari avj oladi. Odamlar uy-joylarini tozalaydi, hovli va ko'chalarini obod qiladi, daraxtlar ekib, gullar o'tqazib, atrof-muhitni yanada go'zal qilishga harakat qiladi. Bunday ishlar insonning tabiatga bo'lgan mehri va hurmati ramzi o'laroq yuzaga chiqadi.

Navro'zning yana bir muhim jihati – milliy taomlardir. O'zining boyligi va fayzi bilan ajralib turadigan bayram dasturxonini turfa xil bahoriy taomlar – ko'k somsa, halim, osh bilan bezatiladi. Ayniqsa, sumalak tayyorlash an'anasi milliy qadriyatlarimiz ichida alohida o'rin tutadi. Ushbu milliy taom tun bo'yi doshqozonlarda qaynatib tayyorlanadi. Qo'shiqlar aytiladi, hazillar, askiyalar bilan kechadigan samimiy gurunglar avj oladi. O'z navbatida, mazkur jarayon odamlarni bir joyga jamlab, mehr-oqibat va birdamlikni kuchaytiradi.

Turli xalq o'yinlari, milliy sport musobaqalari va madaniy tadbirlar ham Navro'zning ajralmas qismi hisoblanadi. Ayyom kunlarida kurash, arqon tortish, uloqko'pkari musobaqalari, xalq sayillari

dek buyuk maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida barcha milliy qadriyatlarimiz qatorida, Navro'z umumxalq bayrami ham o'ziga xos yuksak ma'naviy tayanch vazifasini o'tamoqda.

Xulosa shuki, Navro'z xalqimizning asrlar davomida shakllangan boy madaniy merosi, milliy qadriyatlari va an'analarini o'zida mujassam etgani bilan katta ahamiyatga ega. U har bir kishi qalbiga quvonch, umid va yangi orzular baxsh etadi. Insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, mehr-oqibat va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Zotan, Navro'z tom ma'noda qadim qadriyatlar tarovati ufurib turadigan ulug' bayramdir.

Kamol OLLOYOROV,
o'z muxbirimiz.



Qoraqalpog' tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.

SOG'LOM MUHIT YARATISH YO'LIDA

FARG'ONA. Viloyat hokimining tegishli farmoyishiga asosan Chilonzor namunasi asosidagi ishlar dastlab Farg'ona shahrida, keyingi bosqichda esa viloyatning boshqa shahar va tumanlarida joriy etiladigan bo'ldi. Amalga oshiriladigan ishlarni kunlik monitoring qilish va muvofiqlashtirib turish maqsadida idoralararo tezkor shtab faoliyati yo'lga qo'yildi.

Namunali ishlar dastlab «og'ir» toifaga kiritilgan «Yoshlar» hamda «Ma'rifat» mahallalari misolida boshlab berildi. Bu yerda tashkil etilgan seminarlarda shahar hokimligi, prokuratura, ichki ishlar boshqarmasi, milliy gvardiya hamda «yettilik» tarkibida ishlovchi mutaxassislar ishtirok etishdi. Unda mahallalardagi «xonadonbay» xatlov ishlari, raqamlashtirish, ijtimoiy soha obyektlari hamda aholi uchun yaratilayotgan sharoitlar ko'rgazmali tarzda namoyish etildi. Shundan so'ng shahardagi 74 ta mahallaga ichki ishlar boshqarmasining sohaviy xizmat rahbarlari birlashtirildi.

Profilaktika inspektorlari, patrul-post, yo'l-patrul hamda qo'riqlash xizmatlari xodimlarining o'zaro hamkorlikdagi uch smenalik navbatchiligi yo'lga qo'yildi. «Mening inspektorim» tizimi orqali profilaktika inspektorlarini baholash mezonlari qayta ishlab chiqilib, kunlik so'rov tizimi joriy etildi. Eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgan profilaktika inspektorlarini har oy yakuni bo'yicha rag'batlantirish rejalashtirildi.

Yana bir muhim masala, profilaktika inspektorlarini har kuni boshqarmaga ertalabki yo'riqnoma-ga kelish amaliyotidan voz kechilib, «onlayn yo'riqnoma» tizimi ishga tushirildi. Endi ular soatlab



vaqt sarflash o'rniga, mahalladan chiqmagan holda, yo'riqnoma-da ishtirok etishadi va kundalik ishlari bilan shug'ullanishadi.

Shahar hududida bir necha yirik tibbiyot muassasalari, shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy markazi joylashgan bo'lib, bu yerga bir kunda viloyatning barcha hududlaridan minglab fuqarolar kelib-ketishadi. Fuqarolar oqimi ko'pligini hisobga olib, shartnoma asosida 2 ta davlat tibbiy muassasasi hamda 2 ta xususiy shifoxonada profilaktika inspektorlari shtati joriy etildi.



Mahallalarda huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'sirchan usullarda tashkil etish maqsadida «ko'cha boshi» va «uy boshi»lar bilan hamkorlikda qilinadigan ishlar qayta shakllantirildi, ularni ham oy yakuni bilan rag'batlantirish tizimi ishlab chiqildi. Oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning barvaqt oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi tayyorlanib, unga asosan, notinch oilalar vakillari bilan profilaktik uchrashuvlar o'tkazildi. Tadbir davomida oilalarning mavjud muammolari o'rganilib, ularga huquqiy, psixologik va tibbiy maslahatlar berish tizimi joriy qilindi.

Kriminogen vaziyat og'ir bo'lgan Alisher Navoiy nomidagi mahallada 5 ta «xavfsiz ko'cha» tashkil qilinib, hududga 300 dan ortiq «Kamera nazorati ostida» nomli

stikerlar yopishtirildi. Ko'cha chiroqlari o'rnatildi, yo'l belgilari qayta chizildi. 35 ta ko'p qavatli uyning kirish yo'laklariga kodli qulf, 8 ta yuzni tanib oluvchi varifokal kamera o'rnatildi.

– Amalga oshirilayotgan ishlar-dan pirovard maqsad jinoyatchilikni jilovlash va mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishdir, – deydi Farg'ona shahar IIB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Nurillo Teshaboyev. – Yurtboshimiz tomonidan Chilonzor tumani misolida tushuntirib berilgan yangi tizimni amaliyotga joriy etishimiz bilanoq, samarasi sezila boshlandi. Barcha tadbirlarni hamjihatlik bilan tashkil etsak, birinchi chorak yakunida kriminogen vaziyatni yanada barqarorlashtirishga erishamiz.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Halollikni shior qilgan xodimlar

HAROM LUQMAGA UCHMADI

Ayrim kimsalar qing'ir ishlarini aynan tun qo'ynida sodir etishga urinadilar. Chunki bu paytda atrof sokin, nazorat esa kam bo'ladi, deb o'ylashadi. Ammo ular ichki ishlar organlari xodimlari uchun soat millari qaysi vaqtни ko'rsatishidan qat'i nazar, hushyorlik va ogohlik bir lahza ham susaymasligini anglab yetmaydilar.

Poytaxtimizning Chilonzor tumani-dagi «Erkin» YPX postida avtomobillar qatnovi doimiy ravishda amalga oshiriladi. Yo'l-patrul xizmati xodimlari o'tib-qaytuvchilarni birma-bir kuzatib turadilar. Ayniqsa, «Xavfsiz va sog'lom yurt» oyligi doirasida bu kabi profilaktik tadbirlar yanada kuchaytiriladi.

O'tgan yilning 30-noyabr kuni Chilonzor tumani IIOFMB 1-son IIB JQB tezkor vakili, mayor Jahongir Qodirov ham mazkur postda xizmat vazifasini bajarayotgan edi. Tungi



soat taxminan 01:30 lar atrofida u qora rangli «Tracker» rusumli avtomashinani to'xtatadi. Haydovchi «Yandeks» ilovasi orqali yo'lovchi olib ketayotganini, yonidagi shaxs mijoz ekanini aytib, hujjatlarini xotirjam taqdim etadi. Xodimlar haydovchining hujjatlarini tekshirayotgan paytda yo'lovchi sarosimaga tushib, o'zini shubhali tuta boshlaydi. Shun-

dan so'ng xodimlar unga avtomashinadan tushishini so'rashadi. Tekshiruv davomida uning ichki kiyimidan zar qog'ozga o'ralgan, jigar rangli va o'tkir hidli gashish giyohvandlik vositasi topiladi.

Surishtiruv jarayonida yo'lovchi Z.R. 2000-yili Navoiy viloyatida tug'ilgani, ayni paytda Toshkent shahri Yunusobod tumanida is-

tiqomat qilishi ma'lum bo'ladi. Holat yuzasidan bayonnoma rasmiylashtirish maqsadida u ichki ishlar organiga olib boriladi. Shu jarayonda Z.R. mazkur holatni o'z foydasiga hal qilib berish evaziga mayor Jahongir Qodirovga pora sifatida 2000 AQSH dollari taklif qiladi. Xodimning bildirgisi asosida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida Z.R. unga xizmat xonasida pora berayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olinadi. Mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, sud tomonidan Z.R.ning qilmishiga yarasha jazo tayinlandi.

Mayor Jahongir Qodirov esa kasbini sevgan, vazifasini chin dildan ado etuvchi, oilasiga halol rizq olib boradigan inson bo'lgani uchun harom luqмага uchmadi, vijdonini sotmadi. U o'zining qat'iy prinsiplariga, burchiga sodiq qoldi, sha'niga dog' tushirmadi.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



► Defense and property

Quality, trust, and protection

In the Namangan region, the implementation of the «Quality, trust, and protection» principle by the Guard service under the regional Department of internal affairs has become a cornerstone for ensuring the sanctity of property and public order. The transition from traditional watchkeeping to a high-tech security ecosystem – integrating advanced monitoring with 42 rapid-response units – has significantly bolstered public and entrepreneurial confidence.

Currently, the service oversees 10,299 facilities across various economic sectors and 7 672 private residences, providing a professional «shield» for investments and family peace. The system's operational efficiency is evidenced by its recent performance: personnel identified 2 046 administrative offenses and prevented 189 instances of property theft, recovering assets valued at 55 million UZS. Furthermore, the apprehension of 30 wanted individuals and the detection of 26 drug-related crimes demonstrate the service's critical role in disrupting criminal networks. By prioritizing human dignity and legal responsibility, the Guard service continues to ensure that security remains a tangible reality for every citizen.



► Law enforcement and culture

Blood of Berdaq in his veins

The life and career of lieutenant colonel Kuanish Niyetullaev, the head of the Department of spiritual and enlightenment affairs of the Guard service under the Ministry of internal affairs of the republic of Karakalpakstan, serve as a remarkable example of the harmony between professional duty and artistic creativity.



As a descendant of the classic Karakalpak poet Berdaq, Niyetullaev began his law enforcement career in 2007 as a rank-and-file officer in the Guard Unit of the Qunghirod district Department of internal affairs and has since risen to a senior leadership role. A graduate of the Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyoz in music education, his poetic works have inspired patriotic songs such as «Sacred motherland» and «My Karakalpakstan», which are frequently performed at national events. Supported by his spouse, Nasiba Dauletbaeva, he is raising four children, including his son

Ulugbek Klishbaev, who is currently a student at the University of world economy and diplomacy. By balancing the responsibilities of maintaining public order with a profound dedication to literature, lieutenant colonel Niyetullaev continues his ancestor's legacy, proving that serving the nation requires both physical strength and spiritual depth.

► Community

The effective pillars of social stability

The primary condition for societal progress is peace and security, where the family and the neighborhood serve as the most influential units. In the Urgut district, the «Dehqonobod» neighborhood successfully transitioned from a high-risk «red» category to a «yellow» status in 2026 due to organized preventive efforts. Under the leadership of major Nodir Alimov, the prevention inspector of the «Dehqonobod» AMC, night watch groups were established, and specialized «Crime prevention day» events are being held in schools to foster legal responsibility among youth. Simultaneously, Mohira Abdurahmonova, the women's community activist



of the «Dehqonobod» AMC, has been working closely with distressed families, successfully reconciling 3 out of 5 families that were on the verge of divorce. Through the integrated cooperation of

community activists and law enforcement, the neighborhood aims to achieve a «green» safety rating by the end of the year, reinforcing the principle that a peaceful family is the foundation of a stable nation.

► Social protection

Compassion as a tool for family preservation

In the «Gulchilar» neighborhood of Urganch, a serious domestic conflict brought the young family of Shohruh Qadamboyev and Gulnoza Qurbizayova to the brink of divorce. Upon learning of the situation, captain Zuhra Tillaboyeva, inspector for women's issues at the Urganch city police department and major Sardor Ortiqov, the local prevention officer, intervened to mediate.

Through a compassionate and professional approach, captain Z. Tillaboyeva conducted individual sessions with both parties to identify the root causes of the conflict, which were primarily centered on domestic misunderstandings and a lack of patience. Following discussions with the commission for strengthening family values, the couple reached a reconciliation.



This case highlights the vital role of law enforcement officers in prioritizing mediation over punitive measures. By fostering mutual understanding, they ensure the stability of the home and the well-being of the children involved.

► Public health

ENSURING FOOD SAFETY

To ensure the supply of high-quality food products to the population, the Quarantine measures Department of the regional DIA Public order service, in cooperation with veterinary and healthcare authorities, is conducting systematic inspections across markets and residential areas. Since the beginning of the year, over 1 600 preventive measures have been carried out in farmers' markets, livestock markets, and shopping complexes to enforce sanitary regulations and issue warnings to non-compliant vendors. Despite ongoing efforts, attempts to illicitly sell unfit meat and dairy products at low prices have been intercepted, leading to the legal disposal of such goods. Furthermore, extensive awareness campaigns are being conducted within local communities to prevent the spread of infectious diseases among livestock during the spring season, thereby ensuring a stable epizootic and epidemic situation in the region.



ONALAR E'ZOZDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Xususan, Navoiy viloyati IIB rahbariyati 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan namunali faoliyat yuritib kelayotgan Navoiy shahar IIB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Elbek Ikromovning xonadonida bo'lib, uning onasi Dilduza Mavlonovaga Ichki ishlar vazirining Minnatdorlik xatini topshirdi.

Viloyat IIB JXX JTSB PPXB 1-otryadi PPX inspektori, safdor Shohrux Ismoilovning onasi, Xatirchi tumanidagi yana bir xonadon bekasi Zuhra opa Rahimovaga ham farzandi ortidan rahmat

eshitish nasib etdi. Boshqarma mas'ullari onaxonga Ichki ishlar vazirining Minnatdorlik xatini tantanali ravishda topshirishdi.

Ularga yurtimizda huquq-tartibotni mustahkamlashga munosib hissa qo'shayotgan fidoyi xodimlarni tarbiyalab, qo'llab-quvvatlagani uchun tashakkur izhor etildi. Bu kabi e'zoz, e'tibor va e'tirof nafaqat xodimlar, balki ularni kamolga yetkazayotgan ota-onalar mehnatiga bo'lgan yuksak hurmatning yorqin ifodasidir.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Suratda: Shohrux Ismoilov ayoli va farzandi bilan.

YANGI IMKONIYATLAR ESHIGI



(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Seminar avvalida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, tadbirkorlar mol-mulkini ishonchli muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida atroflicha ma'lumot berildi. Shuningdek, obyektlarning qo'riqlovga olinishi muhim ahamiyatga ega ekani aytilib, zamonaviy videokuzatuv kameralari va xavfsizlik tizimlaridan samarali foydalanish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan tadbir davomida tadbirkorlarning fikr-mulohazalari, takliflari ham tinglanib, ularni qiynayotgan masalalar yuzasidan tegishli tushuntirishlar berildi.

O'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Toshkent shahri

TEMIRYO'L O'YINQAROQLIKNI KECHIRMAYDI

Poytaxtimizdagi «Temiryo'l texnikasi» muzeyida yoshlar o'rtasida temiryo'l transportidan foydalanish madaniyatini yuksaltirish hamda baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida tadbir tashkil etildi. Unda IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti Toshkent mintaqasi TXTB Keles bekatida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi katta inspektori, mayor Ziyodilla Ahmedov maktab o'quvchilari bilan birga muzey bo'ylab sayohat uyushtirdi.

Tadbir davomida o'quvchilar temiryo'l sohasining shakllanish bosqichlari, o'tmishda xizmat qilgan gigant parovozlar va zamonaviy texnikalar bilan yaqindan tanishtirildi. Muzeyning ochiq osmon ostidagi eksponatlari ularda katta taassurot qoldirdi.

Muhimi, sayohat shunchaki tomoshadan iborat bo'lmadi. Mayor Z.Ahmedov har bir eksponat haqida to'xtalar ekan, mavzuni bevosita xavfsizlik qoidalariga bog'lab tushuntirishlar berdi. Xususan, temiryo'l



izlari yaqinida hushyorlikni yo'qotmaslik, yuqori kuchlanishli elektr simlarining xavfi hamda harakatlanish tartibi to'g'risida batafsil so'z yuritdi.

– Temiryo'l o'yinqaroqlik va beparvolikni kechirmaydi, – deydi mayor Ziyodilla Ahmedov. – Bu kabi ko'rgazmali mashg'ulotlar o'quvchilar xotirasiga yaxshi muhrlanadi. Bizning asosiy vazifamiz – har bir o'smirda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, o'quvchi yoshlar ishtirokida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishdir.

Tadbir yakunida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob oldilar.

O'z muxbirimiz.



Bayram tadbiri

EHTIROM IN'IKOSI

Bugun O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish masalasi shunchaki vazifa emas, balki davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ichki ishlar vazirligi Madaniyat saroyida 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tantanali tadbir ana shunday yuksak e'tibor va ehtiromning amaldagi in'ikosi bo'ldi.

Tadbirda Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov o'zining tabrik nutqida vazirlik tizimida xizmat qilayotgan xotin-qizlar davlatimiz tomonidan bildirilgan yuksak ishonchni oqlab, zimmalari-dagi mas'uliyatli vazifalarni sharaflar bilan uddalayotganini e'tirof etdi. Ayniqsa, nafaqat ta'lim va tibbiyot, balki saf bo'linmalari va tezkor tuzilmalarda xizmat olib borayot-

gan opa-singillarimizning jasorati tahsinga loyiq.

Bugungi kunda tizimda 12 nafar fan doktori, 59 nafar falsafa doktori (PhD) faoliyat yuritayotgani soha-ni intellektual salohiyati oshib borayotganidan dalolat beradi. IIV Akademiyasida 280 nafardan ortiq, akademik litseylarda esa 750 nafar qiz ta'lim olayotgani – soha kelajagining mustahkam poydevoridir.



Tadbirning eng hayajonli lahzalari o'z xizmat vazifasiga vijdonan yondashib, jinoyatchilikka qarshi kurashda fidoyilik ko'rsatgan

bir guruh ayol xodimlarni taqdirlash marosimi bo'ldi. Ularga idoraviy ko'krak nishonlari, faxriy yorliqlar hamda muddatidan avval

berilgan maxsus unvonlar tantanali ravishda topshirildi.

O'z muxbirimiz.

Yangilik

MAXSUS BOT

afzal, qulay va samarali yordamchi

So'nggi vaqtlarda mam-lakatimiz hududida muomala-si taqiqlangan va cheklangan giyohvandlik vositalari, psi-xotrop moddalar, prekur-sorlar hamda kuchli ta'sir qiluvchi moddalar tarqalishi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ularni aniqlash va tezkorlik bilan qarshi kurashish jarayonida bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda, bu esa samarali profilaktika va nazorat tizimi-ni rivojlantirishni talab etadi.

Chilonzor tumani tajribasida psixotrop moddalarni aniqlash-ga xizmat qiluvchi, respublika aholisining aksariyat qismi foydalanadigan Telegram messenjerida shartli nomli «Psixotrop» bo'lgan barcha fuqarolar foydalanishi mumkin bo'lgan yangi ochiq bot ishga tushirildi. Mazkur bot IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasida xodimlari tomonidan tayyorlandi.

– Botdan istalgan foydalanuvchi bemalol foydalanishi mumkin, – deydi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasida profes-

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Harokatlarni va oqarot qurallarni nazorat qilish agentligi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti



@Psixotrop_moi_bot



sori, podpolkovnik Jasur Kenjayev. – Bu, avvalo, ichki ishlar organlari, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun dori vositalarining huquqiy maqomini tezkor aniqlashda samarali yordamchi sifatida xizmat qiladi.

E'tiborlisi, foydalanuvchi tomonidan dori vositasining nomi botga kiritilgach, tizim mavjud ma'lumotlar bazasi asosida ushbu preparatning O'zbekiston Respublikasida muomalasi taqiqlangan yoki cheklangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar

hamda kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ro'yxatiga kiritilgan yoki kiritilmagani to'g'risida aniq, ishonchli va tezkor ma'lumot taqdim etadi.

Ushbu mexanizm psixotrop moddalar va ularning analoglari bo'yicha axborot almashinuvini optimallashtirishga, xodimlarning xizmat faoliyatida tezkor qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirishga hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga ko'maklashadi.

Azizjon FAYZIYEV, podpolkovnik.

ZEHNINGIZNI SINAB KO'RING

1. Amir Temur tug'ilgan sana qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 1370-yil 9-aprel
- B) 1336-yil 12-aprel
- C) 1405-yil 18-fevral
- D) 1336-yil 9-aprel

2. Saroymulxonim qarindoshlik rishtasi bo'yicha Amir Temurga kim bo'lgan?

- A) onasi
- B) xotini
- C) singlisi
- D) opasi

3. «Temur tuzuklari» qaysi tilda yozilgan?

- A) fors tilida
- B) turkiy tilida
- C) arab tilida
- D) sanskrit tilida

4. Amir Temur qaysi urug'ga mansub bo'lgan?

- A) ming
- B) yuz
- C) qo'ng'iroq
- D) barlos



Kibermakondagi xatarlar

Farzand ulg'aygani sari oilaning fustunlari bo'lmish ota-onaning ham mas'uliyati ortib boraveradi. «Farzandim kimlardan ibrat olyapti, kimlarga havas qilyapti?», degan savol har bir ota-onani o'ylantirishi kerak. Bolalarning qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh, suratdan xoli gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko'ra shakllanadi, eggan to-monga egiladi. Agar bola ilm olib, yaxshilikning ichida voyaga yetsa, albatta, jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs bo'lib shakllanadi. Aksi bo'lsa-chi?..

Biz yoshlarni ana shu aks ta'sirlardan asrashimiz kerak. Chunki bugun oramizda internet tarmog'ida, ayniqsa, Telegramda, turli yopiq kanallar va guruhlar orqali yoshlar ongini zaharlovchi turli ma'lumotlar, vahshiylik va pornografiya aks etgan fotovideolarni tarqatishni o'zlariga «kasb» qilib olib, bu orqali daromad topayotgan kimsalar ham bor.

Pornografik mahsulotni tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki internet jahon axborot tarmog'ida reklama qilish, namoyish etish qonunchilik bo'yicha taqiqlangan. Bunday qilmish belgilangan tartibda jazoga tortilishga sabab bo'ladi. Afsuski, ayrim nokaslar yoshlar ongiga zarar yetkazuvchi, ularning kelajagini barbod etuvchi qabih g'oyalarning imkonini topdi degunicha targ'ib qilishga shay. Ichki ishlar organlari tomonidan yoshlar ongini zaharlovchi turli ma'lumotlar, vahshiylik va pornografiya aks etgan foto-videolarni tarqatishni «kasb»ga aylantirib olgan va bu orqali daromad topayotgan shaxslar hamda ular faoliyat yuritayotgan kanal va guruhlarini aniqlashga qaratilgan tezkor-texnik tadbirlar olib borilmoqda.

– Yaqinda Farg'onada 1997-yilda tug'ilgan A.T. Telegramdagi kanal administratori sifatida pornografik videolarni moddiy mablag' evaziga tarqatib kelayotgani aniqlandi, – deydi IIV Tezkor-qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazi katta mutaxassisi, kapitan Maqsudjon



Xavfsiz hudud



TA'SIRCHAN BO'G'IN

Jamiyat taraqqiyotining eng muhim sharti tinchlik va xavfsizlikdir. Osoyishta hayot hukm surgan yurtida insonlar erkin mehnat qiladi, yoshlar kelajak sari ishonch bilan qadam qo'yadi, mahallalar esa hamjihatlik maskaniga aylanadi. Shu bois, xavfsiz hududni ta'minlash, jinoyatchilikni o'z vaqtida oldini olish masalasi har doim ham dolzarb vazifa hisoblangan.

Urgut tumanida 116 ta MFY mavjud. 12 ta mahalla qizil toifada, ularning 6 tasi kriminogen vaziyati og'ir mahalla hisoblanadi. O'tgan yili «Dehqonobod» mahallasi ham shular qatorida edi. Mahalla mutasaddilari sa'y-harakati tufayli 2026-yilda sariq toifaga o'tdi.

– Mahallamizda 10 mingga yaqin aholi bor. Jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida tizimli profilaktik tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, mahalla faollari va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi asosida tungi navbatchilik guruhlarini tashkil etdik. Patrul xizmatlarini jalb etgan holda tunda maqsadsiz yurgan yoshlarni aniqlab, ularning ota-onalari bilan suhbatlar uyushtirildi. Spirtli ichimlik iste'mol qilib, ko'chada yoki uyida janjal qiladigan fuqarolar mahallada muhokama qilindi. Qonunni mensimaydigan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rdik. Xonadonday o'rganilgan muammolar bartaraf etildi. Aholining har bir murojaati nazoratga olinib, tegishli choralar ko'rildi, huquqiy maslahatlar berildi. Bu ishlarimiz o'z samarasini bermokda, – deydi «Dehqonobod» MFY profilaktika inspektori, mayor Nodir Alimov.



Inspektor psixologlar tomonidan ta'lim maskanlari, xususan umumta'lim maktablarida yosh avlod tarbiyasi va xavfsizligiga alohida e'tibor qaratil-yapti. Yoshlarni turli salbiy holatlardan asrash, ular ongida qonunga hurmat va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish maqsadida har payshanba «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»da o'quvchi-yoshlar bilan profilaktik targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda.

– Notinch oilalarni o'rganishda oila a'zolari bilan ochiq muloqot

qilyapmiz. Dard-u xasratini tinglab, notinchlik sabablarini o'rganyapmiz. Zarur hollarda psixologlar maslahati tashkil etilyapti. Natijada 5 ta ajrim yoqasiga kelib qolgan oiladan 3 tasi yarashtirildi. Yana 2 ta oilani murosaga keltirish choralari ko'ryapmiz. Qachonki, oila tinch bo'lsa, mahalla tinch, mahalla tinch bo'lsa, yurtimiz tinch bo'ladi, – deydi «Dehqonobod» MFY xotin-qizlar faoli Mohira Abdu-rahmonova.

Darhaqiqat, oila va mahalla jamiyatning eng kichik, ammo o'ziga xos ta'sirchan bo'g'inlari hisoblanadi. Agar faollar, profilaktika inspektori, nuroniylar va yoshlar yetakchilari shu tarzda o'zaro hamjihatlikda ish olib borishar ekan, dehqonobodliklarning yarim yil yakuniga ko'ra yashil toifaga o'tishiga ishonso bo'ladi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

YOT ILLATLAR



Mirabdullayev. – U 2025-yilning fevral oyidan hozirga qadar 925 ta turli ko'rinishdagi voyaga yetmaganlar ishtirokidagi pornografik materiallarni tarmoqqa joylashtirgan. Keyingi vaqtlarda Telegramda bu kabi kontentlarning ko'payib borayotgani ko'p sonli yurtdoshlarimizning haqli xavotiriga sabab bo'lmoqda. Bunday hollarga barham berish yuzasidan bizga ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda. Ana shunday murojaatlar asosida, Jizzax viloyati IIB tomonidan olib borilgan tezkor-qidiruv tadbirlari davomida Telegramda axloqsiz va bolalar ishtirokidagi pornografik mahsulotlarni tarqatib kelayotgan A.N.ning faoliyati fosh etildi. U 442 nafar foydalanuvchiga ega bo'lgan kanal orqali 403 ta turli ko'rinishdagi bolalar ishtirokidagi pornografik materiallarni tarqatgan. Ayni paytda ushbu holatlar yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Ha, keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlarning ongini zaharlashga uringan g'arazli kimsalar qonun oldida javob berishi tayin, albatta. Insonning har bir harakati – uning orzu istaklari algoritmidir. Bunda oq va qora yo'llar bor. Ota-ona, bobo-

buvilar maslagi, e'tibori bolalarni oq yo'lakka chorlashi aniq. Biroq qora niyat bilan qora yo'lakning boshida turganlarni nima qilish kerak? Muammoning o'ylantiradigan jihati shunda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashish borasida tegishli tashkilot va idoralar tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Davlatimiz rahbari «Madaniyatimizga xos bo'lmagan bunday illatlarga qarshi murosasiz munosabatda bo'lishimiz va ayovsiz kurashishimiz shart», – deya bu masalaga alohida e'tibor qaratgani ham bejiz emas.

Tashvishlisi, yuqoridagi holatlar bolalarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq. Shunday ekan, axborot texnologiyalari imkonlari soyasida «unib chiqqan», ma'naviyatimizga yot bu illatlardan farzandlaringizni asrang, biror daqiqa bo'l-sa-da ularni nazoratsiz, e'tiborsiz qoldirmang.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Kinologiya xizmati

O'Z MAVQEYINI YO'QOTGANI YO'Q

Joriy yilning yanvar oyida Nukus shahrida kirakashlik qilish maqsadida ko'chaga chiqqan Nurilla Yusupov (ism-sharifi o'zgartirildi) bir qancha yo'lovchilarni manziliga olib borib qo'ygach, avtomashinasidagi 1500 AQSH dollari va 2,5 million so'm puli g'oyib bo'lganini payqab qoladi. U sarosimaga tushmay, darhol ichki ishlar organiga murojaat qiladi.

Mazkur murojaat asosida voqea joyiga yetib kelgan tergov-tezkor guruhi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi kichik inspektor-kinologi, safdor Tugel Sabirov ham bor edi. U o'ziga birlashtirilgan «Greta» laqabli xizmat iti bilan darhol qidiruv ishlariga kirishadi. «Greta» avtomashina salonidan gumon qilinuvchiga tegishli bo'lgan hidni olib, uni tashqaridagi izlar bilan «bog'lay» bildi. Jonivor ana shu iz bo'ylab harakatlanadi. Natijada qisqa fursat ichida gumon qilinuvchining shaxsiga aniqlik kiritilib, u qo'lga olinadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, xususan,

videokuzatuv vositalari, DNK tahlili va biometriya shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davrda ham Kinologiya xizmati jinoyatchilikka qarshi kurashishda o'z mavqeyini yo'qotgani yo'q. Aksincha, xizmat itlari ko'plab vaziyatlarda eng zamonaviy qurilmalardan ham samaraliroq natija bermoqda. Sababi, texnologiyalar qanchalik rivojlanmasin, xizmat itlarining noyob hid bilish qobiliyati va kinologning mahorati jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamon eng kuchli qurol bo'lib qolmoqda.

Buni Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi misolida

ham yaqqol ko'rish mumkin. Bo'linma xodimlari hududda jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirib kelishmoqda. Xizmat itlari iz qidiruv, g'iyohvandlik vositalari va portlovchi moddalarni qidirib topish yo'nalishlari, shuningdek, umumiy va maxsus kurslar bo'yicha o'rgatilib, ulardan xizmatda unumli foydalanilmoqda.

Joriy yilning o'tgan ikki oyi davomida Kinologiya bo'linmasi hamda Birinchi, Ikkinchi va Uchinchi mintaqaviy hududlar mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari kinologiya guruhlarini xodimlari tomonidan 52 marta voqea joyiga chiqildi. Shundan 9 ta holatda o'g'rilik jinoyatlarining xizmat itlari ko'magida ochilishiga muvaffaq bo'lindi.

– Xodimlarimiz jinoyatlarni fosh etish bilan bir qatorda, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish maqsadida ko'cha va jamoat joylari, bozor-



larda tashkil etilgan piyoda patrullik naryadlarida ham ishtirok etib kelmoqda. Joriy yil boshidan buyon ular 267 marotaba jamoat tartibini saqlash, bozorlarda patrullik qilish hamda joylarda o'tkazilgan ommaviy-madaniy tadbirlarda ishtirok etib, aholi xavfsizligini ta'minlashga munosib hissa qo'shishdi, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Ruslan Uteuliyev.

Aytish joizki, kinolog xodimlar va ularga birlashtirilgan xizmat itlarining umumiy va maxsus kurs bo'yicha tayyorgarlik darajasini yaxshilash faoliyatimizning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda tasdiqlangan jadval asosida xodimlar o'zlariga birlashtirilgan xizmat itlari bilan bir oylik o'quv kursida qayta tayyorlovdan o'tkazib kelinaypti.

Murat OTENIYAZOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV
JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi
guruh komandiri, katta serjant.



Ayol va jamiyat

HAR FASLDA MO'TABAR

Mehr-muhabbat, go'zallik timsoli bo'lgan ayol gul undirib, hovlisini, xonadonini obod etadimi, hunarmand, tadbirkor, o'qituvchi-murabbiy yoki davlat xizmatchisi bo'ladimi, uni bir so'z bilan bunyodkor, fidoyi desak arziydi. Ana shunday ezgu amallar sohibalari har qancha e'zoz, ehtiromga arziydi. IIV «Dinamo» JTSJ moliya-iqtisod bo'limi bosh inspektori, podpolkovnik Mas'uda Ahmedova ham shunday ayollardan biridir. U Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida «Mo'tabar ayol» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



– «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida respublikamizning taniqli ayollari jam bo'lgan davrada ushbu mukofotni qabul qilib olish men uchun nihoyatda hayajonli, quvonchli va yoqimli bo'ldi, – deydi qahramonimiz. – Xalqimizda «Daraxt bir yerda

ko'karadi», – deya bejizga aytilmagan ekan. Men ham ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilib, jamiyatda o'z o'rnimni topdim. Shaxsiy hayotimda ham baxtga erishdim.

Yillar bir-birini quvlab o'tib bolar ekan, insonning har bir amali

umr kitobiga yangi mazmun bo'lib bitilaveradi. Qahramonimizda ham shunday bo'ldi, u dastlab ichki ishlar organlarida erkin yollangan ishchi sifatida faoliyat boshladi. Keyin o'zining qat'iyati, ishiga vijdonan munosabati bilan rahbariyat e'tiboriga tushdi va shahodatlangan xodimlar safiga qo'shildi. Mas'uliyatli sohadagi xizmatini to'kis bajarishida yaqinlari, ayniqsa, turmush o'rtog'i Toshkent shahar IIBB YHXBda uzoq yillar samarali xizmat qilgan iste'fodagi mayor Fatxulla Ahmedov yordamini ayamadi. Ahil-inoqlikdagi oila oshiyonida farzandlarining qiziqishlari, maqsadlarini qo'llab-quvvatlab, el koriga yaraydigan insonlar qilib tarbiyalashdi. Ularning qizi Mohira Alimova ayni paytda Temiryo'l yoqilg'i-ta'mir boshqarmasida iqtisodchi. O'g'li kapitan Nig'matilla Hikmatov esa Toshkent shahar bojxona boshqarmasi «Chuqursoy» TIF bojxona posti boshlig'i o'rinbosari. Ibratli oilaning kelini Umida Hikmatova

ham ichki ishlar organlari tizimida xizmat qiladi, unvoni mayor.

Ayolning suvrati-yu siyratida ezguliklar bisyor. Qahramonimiz ham erta tongdan xizmatga o'tlanadi. Zimmasi-dagi mas'uliyatli vazifalar hisob-kitob, raqamlar bilan bog'liq. Bunda, albatta, e'tiborli bo'lish kerak. Kech tushib, oilasi bag'riga qaytganida esa Mas'uda Ahmedovani biri-biridan shirin nabilari Madinaxon va Umarxon kutib oladi.

– Nabiralarim ko'zimning quvonchi, – deydi u. – Ular hamma charchoqlarimni aritadi. Tillari biyron shirintoilarim bugunning zukko bolalari, ularning juda savollari ko'p, ba'zan shoshirib ham qo'yishadi. Ilohim, ota-onasi singari el-u yurtga nafi tegadigan insonlar bo'lib ulg'ayishsin.

Ha, fidoyilik qalbini yoritgan qahramonimizning har kunida ayollikning, onalikning ming bir fasliga xos xususiyatlar zohir. Ularning har biri betakror va xuddi gullarga burkangan bahor singari tarovatlidir.

Yoshlar — kelajak bunyodkori

SHIJOATI MAQSADIGA XOS

Yosh bo'lsa-da orzulari yo'lida intilishi, tinimsiz izlanishi va harakatchanligi bilan anchagina muvaffaqiyatlarga erisha olgan Ruxshona Ramazonova IIV Akademiyasi 3-kurs kursanti. U Buxoro viloyatining Kogon shahrida tug'ilib o'sgan.

– Qizim oldiga qo'ygan maqsadlari sari doim dadil harakat qiladi, qiyinchiliklardan cho'chimaydi, – deydi onasi Lola Rahimova. – IIV Buxoro akademik litseyida a'lo baholarga o'qidi, Ichki ishlar vaziri stipendiyasi bilan taqdirlandi va mening ishonchimni oqladi.

Ha, yoshlik shijoati-la kichkinayuragiga katta maqsadlarni joylagan Ruxshona oydin orzulari yo'lida dadil odimlab, IIV Akademiyasiga kirish sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tdi. Mazkur ta'lim muassasasida tez orada ilg'or tengdoshlari safiga qo'shildi. 2025-yilda «Akademiya a'lochisi» ko'krak nishoni sohibasi bo'ldi.

– Inson shunchaki kasb-korli bo'lishi uchun emas, o'z hayotiga mazmun olib kiradigan, yuragiga yaqin sohada o'qisa, albatta, jamiyatda kerakli mutaxassis bo'lib shakllanadi, – deydi qahra-

monimiz. – To'g'ri, bu tanlov osongina amalga oshmaydi. Lekin astoydil harakat qilish kerak. Ertani yaratish uchun bugundan intilish zarur.

Ruxshona bu so'zlarini hayotining oltin qoidasiga aylantirib ulgurgan. Shu bois o'z ustida tinimsiz ishlaydi, o'qib-o'rganadi, sport mashg'ulotlarini kanda qilmaydi. Uning qo'lga kiritgan yutuqlari esa izlanishlari, intilishlari mevasi, desak aslo mubolag'a emas.

Ruxshona Ramazonova ayni paytda taekvondo ITF bo'yicha qora belbog' sohibasi, O'zbekiston sport ustasi, 8 karra O'zbekiston, 2 karra Jahon chempioni, bir karra Jahon kubogi sohibasi sanaladi. Ingliz tilidan B2, kompyuter savodxonligi bo'yicha «Front-end programming» sertifikatlarini qo'lga kiritgan.

– Bugun yurtimizda yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar o'rganishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, – deydi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasi o'qituvchisi, mayor Shahzod Nazirov. – Ruxshona Ramazonova ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan kursantlarimizdan birdir. U sohaga oid huquqiy bilimlarini xorijiy adabiyotlar yordamida ham boyitib, tahlil qiladi. Bunda unga ingliz, rus, tojik, qoraqalpoq tillarini bilishi juda qo'l keladi. Yaqinda «Ustoz, turk tilini o'rganyapman», – deb qoldi. Xalqimizda «Til bilgan – el biladi» maqoli bejizga yaralmagan. Ruxshonaning kasbiy bilimlarini boyitish yo'lidagi izlanishlarini nihoyatda qadrlayman. Uning sohada sidqidildan xizmat qiladigan yetuk kadr bo'lib yetishishiga ishonchim komil.

O'ng u t a f a k k u r i g a ilm-ma'rifatni mayoq deb bilgan lavhamiz qahramoni buxorolik zardo'z onalarimizga xos nozik did bilan do'ppi-do'zlik, tikuvchilikni ham



qoyillatadi. Ruxshona tikkan do'ppilarning nafis gullarida uning go'zalikka oshufta qalbi aks etib turadi, go'yo. Bu o'zi qoralagan she'riy misralarga ham ko'chadi.

Sirasini aytganda, ayni damlarda ilm, kasb-hunar,

sport, adabiyotga oshnolik ila axborot texnologiyalari sohasidagi zamonaviy bilimlarni ham o'zlashtirayotgan Ruxshonaning shaxt-u shijoati orzu-maqsadlariga xos!

Gulnoza TURGUNBOYEVA, o'z muxbirimiz.

O'rinbosarning bir kuni

SAMARADORLIK KALITI

Mirzaobod tumani IIB boshlig'ining o'rinbosari, mayor Ilyos Amanboyev har kuni xodimlarning xizmat xonalarini birma-bir aylanishni o'ziga odat qilgan. Xonaning tozaligi, hujjatlarning to'g'ri yuritilishi, xodimlarning batartibligi, ruhiyati qanday ekanini uning nazaridan chetda qolmaydi. Ularning har biri bilan qisqagina bo'lsa ham suhbatlashishga harakat qiladi. Chunki bu jihatlar xizmat samaradorligiga ta'sir qiladi deb hisoblaydi.



Bugun ham shunday bo'ldi. Ertalabki saflanish paytida tumandagi kriminogen vaziyat tahlil qilinib, tegishli ko'rsatmalar berilgach, xonalarni bir-bir aylanib chiqdi. Aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish zarurligini uqtirdi. Shundan keyin ertasi kuni bo'ladigan ma'naviyat soatiga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Ushbu tadbirda ekologik muammolar va ularni hal etish bo'yicha axborot berish ko'zda tutilgan edi. Ushbu mavzudagi ma'lumotlarni, internetdagi materiallarni o'rgandi. Shu asnoda tuman Ekologiya bo'limiga qo'ng'iroq qilib, rahbarini ma'naviyat soatiga taklif etdi.

Tushgacha hujjatlarni ham saranjomlashga ulgurdi. Tushdan keyin esa o'zi rejalashtirganidek, bir qancha xodimlarning oilaviy holatini o'rganishga kirishdi. Dastlab Guliston shahrining «Ulug' yo'l» mahallasiga yo'l oldi. Ushbu mahallada Mirzaobod tumani IIB JXX JTSG saf bo'linmalari PPS inspektori, safdor Hasan Dadaxanov istiqomat qiladi. Safdorning ichki ishlar organlarida faoliyat boshlaganiga hali ko'p bo'lmagan. O'tgan yili oktabr oyida uylangan.

Ilyos Amanboyev kirib borsa, uyda yosh xodimning

otasi Adham aka bor ekan. Uzoq yillar ichki ishlar organlarida faoliyat ko'rsatib, pensiyaga chiqqan bu inson juda odamoxun chiqib qoldi. U o'g'lining rahbarini ochiq chehra, xush kayfiyat bilan kutib oldi. Bir piyola choy ustida gurunglashishdi. Ma'lum bo'lishicha, xonadonda jami besh kishi istiqomat qilar ekan. Hovli uncha katta emas – to'rt so'tix. Tomorqada mo'jazgina bog' barpo qilingan. Hasan ukasi bilan bo'sh vaqtida bog' ishlarida dadasiga qarasharkan.

Bu oilaning mahallada obro'si nihoyatda baland. Boisi, Adham aka boshchiligidagi ushbu xonadonda biror marta janjal bo'lmagan. Suhbat asnosida yangi tushgan kelinni ishga joylashtirish, Hasanni kelgusida yangi uy-joy bilan ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi. Mayor shu masalalar bo'yicha ko'mak berishni o'ziga maqsad qilib qo'ydi.

Lavhamiz qahramonining keyingi manzili esa Mirzaoboddan ellik chaqirimcha uzoqda joylashgan Sayxunobod tumani «Baxmalsoy» mahallasi bo'ldi. Mazkur mahallada Mirzaobod tumani IIB JXX HPB VEMB katta inspektori, kapitan Shohruh

Esonboyev yashaydi. U tajribali xodim. Oldindan kelishilganidek, Shohruh uyga kelib, boshlig'ini kutib turgan ekan. Hovliga kirib borishdi. Hamma tomonda saranjom-sarishtalik. Toza, ozoda joyda esa fayz-u baraka bo'ladi.

Uyda Shohruh ota-onasi, turmush o'rtog'i va to'rt nafar farzandi bilan istiqomat qilarkan. Ota-onasi nafaqada. Oilada hech qanday muammo yo'q. E'tiborlisi, xodim xizmatdan ortib, farzandlarini to'g'ri tarbiyalashga ham vaqt ajratar ekan. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga borib, farzandlarining tarbiyachilari bilan suhbatlasharkan. Ilyos Amanboyev ushbu oiladan ham ko'ngli to'q holda chiqib ketdi.

Aynan mana shunday muhitda yashaydigan xodimninggina ishida unum, topganida baraka bo'ladi. Zero, ko'ngil xotirjamligi samaradorlik kalitidir. U bugun o'zi bo'lgan xonadonlarni ertaga o'tkazadigan ma'naviyat soatida boshqa xodimlarga o'rnak sifatida ko'rsatishni ko'ngliga tugib qo'ydi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Jizzax viloyati



Yaqinda viloyat IIB ma'muriy qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar saqlanuvchi Maxsus qabulxonada uchrashuv o'tkazildi.

Bu yerda vaqtincha saqlanayotgan fuqarolarning yashash sharoiti, kundalik tartibi, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish hamda kelgusida jamiyatga moslashuvi masalalari muhokama qilindi.

Muloqot davomida sud tomonidan belgilangan jazo qoidalariga rioya qilishning ahamiyati, saqlanuvchilarning huquq va majburiyatlari, maxsus qabulxonadagi ichki tartib-qoidalar hamda jazo muddati davomidagi imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot berildi hamda saqlanuvchilarning fikr-mulohazalari, takliflari tinglandi.

B.TOG'AYEV,
kapitan.

Payshanba — yoshlar kuni

YURT HIMOYASIGA OTLANGANLAR



Kuni kecha Toshkentdagi G'alaba bog'i memorial majmuasida harbiy xizmatga ketadigan yoshlar uchun tantanali kuzatish marosimi bo'lib o'tdi. Unda 150 nafar yigitlar yurt himoyasi yo'lida muqaddas burchini ado etish uchun kuzatildi. Tadbir davomida so'zga chiqqanlar yoshlarni ona Vatanga sadoqat, mardlik va fidoyilik ruhida xizmat qilishga chaqirdi.

Yosh askarlarga ezgu tilaklar bildirildi, esdalik sovg'alari topshirildi. Marosim yoshlarning oila a'zolari va mehmonlar uchun ham esda qolarli va o'ziga xos kunga aylandi. Tantanali marosim yoshlar qalbida fidokorlik va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga xizmat qildi.

O'z muxbirimiz.



Inson qadri — ulugʻ



Zominlik Shahnoza Avvalboyeva qandli diabet kasalligi sabab II guruh nogironiga aylandi. Taqdir ekan, turmush oʻrtogʻi erta vafot etdi. Birgina qizi bilan yolgʻiz qoldi. Xastalik har qadamda oʻzini bildirib turdi. Qizalogʻi boʻy choʻzgan sari kichik oilaning xarajatlari kattarib bordi. Eng qiyini, ularning oʻz uyi yoʻq edi. Ijara toʻlovlari yolgʻiz onaga kun sayin ogʻirlik qila boshladi...

KELAJAKKA ISHONCH BILAN

Bugun bu kunlar — oʻtmish, xotira. Shahnoza opaning eng katta orzusi ushaldi. U oʻz uyiga ega. Bu uy — u kabi ilinji soʻlayotgan insonlarga hayotda yaxshilar borligini isbotlovchi dalil. Faxrlanarlisi, bu uy ichki ishlar organlarida halol xizmat qilib, pensiyaga chiqqan faxriylar tashabbusi bilan bunyod etildi.

Xayrli tashabbus Zomin tumani Sharof Rashidov nomli mahallada amalga oshdi. Muborak Ramazon oyi arafasida uy oʻz egalariga tantanali ravishda topshirildi. Tadbirda Ichki ishlar vazirligi masʼullari va Jizzax viloyati IIB vakillari, mahalla faollari ishtirok etdi.

— Uy-joy qurilishi mahallamiz ahli tomonidan toʻliq qoʻllab-quvvatlandi. Qurilishda ishtirok etuvchilarga imkon qadar koʻmak koʻrsatishga harakat qildik, — deydi mahalla fuqarolar yigʻini raisi Farhod Mamadaliyev. — Infratuzilmaga masʼul har bir tashkilot oʻz yoʻnalishida ishlab, uy uchun zarur tarmoqni kiritib berdi. Yanvar oyida boshlangan qurilish koʻpning kuchi bilan tezda qurib bitkazildi. Shahnoza Avvalboyeva «Ayollar daftari» roʻyxatida turadi. Unga davlat tomonidan ajratilgan yordamlar oʻz vaqtida yetkazilyapti. Sogʻligʻiga toʻgʻri keladigan ish bilan taʼminlash choralari koʻryapmiz.

Bu soha faxriylari tashabbusi bilan Jizzax viloyatida qurilgan uchinchi uy hisoblanadi. Bunga qadar Zomin va Zafarobod tumanlarida ham miskin oilalar vatanli boʻlishgan edi. Umu-

man olganda, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qoʻriqlash departamentida xizmat qilgan hamda «Inson qadri» jamoasini tuzib, respublikamiz boʻylab yordamga muhtoj oilalarga koʻmak koʻrsatib kelayotgan faxriylar allaqachon 16 ta uy kalitini egalariga topshirishga ulgurdi.

— «Inson qadri» guruhi Nazir Xalilov tashabbusi bilan 4 yil muqaddam tashkil topgan. Xayrli ishning qanoti bor, deyishadi. Bugun instagramdagi guruhimizda 6 ming nafardan ziyod kuzatuvchi va qoʻllab-quvvatlovchilar bor, — deydi faxriy Gʻulom Turdiqulov. — Koʻmakka muhtoj insonlarga yordam koʻrsatish, ularni qoʻllab-quvvatlash maqsadida davlatimizga koʻmakchi boʻlishga bel bogʻlaganmiz.

Gʻulom akaning aytishicha, ehtiyojmand oilalar bilan aloqalar, uy topshirilgach, darhol tugamaydi. Oiladagi bolalar voyaga yetib, oyoqqa turib olguncha homiylik yordamlari koʻrsatib turiladi.

Oʻz burchini namunali tarzda ado etib, dam olish onlariga yetgan faxriy xodimlar bugun ham bedor. Ular uchun xalq xizmati hech qachon tugamaydi. Fuqarolarga doʻstona munosabat, tanlilik va oliyhimmatlilik faxriylarning ezgu aʼmoliga aylangan. Zero, ular faqat uy emas, ishonch va umid qurmoqdalar. Bu — juda muhim va xayrli amal.

Muqaddas SAPAROVA,
oʻz muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Ayol va jamiyat

OILANI QUTQARGAN MEHR

...Urganch shahridagi «Gulchilar» mahallasida joylashgan xonadonlardan birida ogʻir sukunat hukm surardi. Shohruh Qadamboyev va Gulnoza Qurbiyazova oʻrtasidagi kelishmovchiliklar endi shunchaki janjal emas, balki yosh oilani jar yoqasiga olib kelgan jiddiy muammoga aylangandi.

Bundan xabar topgan Urganch shahar IIB HPB xotin-qizlar masalalari boʻyicha inspektori, kapitan Zuhra Tillaboyeva va mahalla profilaktika inspektori, mayor Sardor Ortiqov xonadonga kirib kelishdi. Zuhra Tillaboyeva suhbatni rasmiy ohangda emas, balki onalarcha muloyimlik bilan boshladi:

— Oila bir kunda qurilmaydi, — dedi u sokin ovozda. — Uni sabr bilan asrash kerak. Farzandingizning kelajagi sizlarning bugungi qaroringizga bogʻliq.

Avvaliga har ikki tomon ham oʻz haqligini isbotlashga urindi. Ammo kapitan Zuhra Tillaboyeva har bir gapni diqqat bilan tinglab, muammoning ildiziga yetib borishga harakat qildi. Er-xotin bilan alohida-alohida suhbatlashib, har ikkining dardini eshitdi.

Maʼlum boʻlishicha, kelishmovchiliklar asosan maishiy masalalar, oʻzaro tushunmovchilik va sabrsizlik tufayli kelib chiqqan.

Zuhra Tillaboyeva tashabbusi bilan masala Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasida ham muhokama qilindi. Komissiya aʼzolari oilaning saqlab qolinishi, farzand manfaati ustuvor ekanini alohida taʼkidlashdi. Samimiy yondashuv va tushuntirish ishlari, nihoyat, oʻz natijasini berdi. Er-xotin oʻzaro kelishib, oilani saqlab qolishga qaror qildi. Yosh kelin yana oʻz uyiga qaytdi.

Bu birgina oilaning tarixi emas, balki mehr va masʼuliyat bilan qilingan xizmat samarasidir. Xotin-qizlar masalalari boʻyicha inspektor, kapitan Zuhra Tillaboyevaning har bir kuni ana shunday oilalar taqdiri bilan bogʻliq. Uning maqsadi mojaroni jazo bilan emas, tushuntirish va murosaga keltirish orqali hal etishdir. Chunki bir oilaning saqlanishi bolalarning baxtli kelajagini saqlash demakdir.

Nilufar JABBOROVA,
oʻz muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



Yuksak mukofot sohiblari

SADOQAT-LA BEZALGAN UMR

Insonning kasbga sadoqati, xalq xizmatiga bag'ishlagan umri uning eng katta boyligidir. Ayniqsa, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilishdek mas'uliyatli sohada faoliyat yuritish katta matonat, sabr va vatanparvarlikni talab etadi. Ana shunday fidoyi xodimlardan biri – Denov tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Sadbaroy Jumayevadir.

Ichki ishlar organlarida 27 yildan buyon sidqidildan xizmat qilib kelayotgan Sadbaroy Jumayeva o'zining mehnatsevarligi, adolatparvarligi va mas'uliyati bilan hamkasblari orasida alohida hurmat qozongan. Uning bevosita rahbarligi ostida minglab fuqarolarning murojaatlari o'z vaqtida va qonuniy asosda hal etilgan. Jumladan, 35 mingdan ortiq fuqarolarga

ID karta rasmiylashtirib berildi, 7,9 ming nafardan ortiq fuqarolar xorijga chiqish pasportlariga ega bo'ldi. Shuningdek, xorijga chiqish pasportini yo'qotgan 366 nafar fuqaroga yangi hujjatlar rasmiylashtirildi, fuqarolik pasportlarini yo'qotgan 1,7 ming nafardan ortiq fuqarolarning hujjatlari qayta tiklandi.



– Inson o'zi sevgan kasbida ishlasagina baxt topadi, muvaffaqiyat qozonadi, – deydi

qahramonimiz. – Men kasbim orqali juda ko'plab insonlarga yordamim tegayotganidan quvonaman. Ba'zan ko'cha-ko'yda tanimagan odamlar ham «baraka toping», «rahmat» degan so'zlarni aytganida, kasbimga bo'lgan mehrim va sadoqatim yanada ortadi.

Migratsiya sohasidagi muhim vazifalardan biri bo'lgan xorijliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ro'yxatga olish ishlarida ham samarali natijalarga erishildi. Uning rahbarligida 1,6 ming nafardan ortiq chet el fuqarolari vaqtincha ro'yxatga qo'yildi. Shuningdek, 20 nafar chet el fuqarosining O'zbekistonda doimiy yashash haqidagi murojaatlari ijobiy hal qilindi.

Fidokorona mehnat, yuksak mas'uliyat va xalq xizmatiga bo'lgan sadoqat e'tiborsiz

qolmadi. Yaqinda Sadbaroy Jumayeva Vatan oldidagi xizmatlari uchun Prezidentimizning farmoniga ko'ra, «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi. Bu e'tirof nafaqat uning shaxsiy mehnati, balki ichki ishlar organlarida halol va vijdonan xizmat qilayotgan barcha xodimlar mehnatiga berilgan yuksak bahodir.

– Onam hayotda juda sabrli va mehnatkash ayol, o'n farzandning hammasini o'qimishli qilib tarbiyalagan. U «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlangan va farzandlarining ham davlat mukofoti bilan mukofotlanishini ko'p yillardan beri orzu qilardi. Menga berilgan bu mukofot tufayli, eng avvalo, onamning orzusi ushaldi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

Buxoro viloyati

LANUVCHAN QUVAR

2023-yilda IIV Akademiyasini tugatgan Dilmurod Olimov Buxoro shahar IIOFMB 1-sonli IIB Jinoyat qidiruv bo'limi tezkor vakili lavozimida xizmat qilmoqda. Ustozi, podpolkovnik F. Inatullayevdan jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida saboq olib, kasbiy mahoratini oshirib bormoqda.

Mas'uliyatni chuqur his qilgan katta leytenant Dilmurod Olimov shaxsan o'zi ikkita jinoyatni «issiq izida» fosh etdi, yana to'rtta jinoyatni aniqladi. Bundan tashqari, sodir etilishi mumkin bo'lgan to'rtta jinoyatning oldini oldi.

3-fevral kuni olingan ma'lumotlar asosida xolislar ishtirokida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida «Jo'ybor» mahallasida yashovchi G.M.ning uyi yerto'lasidan folga qog'oz o'ramiga joylashtirilgan, og'irligi 3,23 grammga teng miqdordagi marixuana giyohvand moddasi chiqdi. Surishtiruv jarayonida u og'uni o'tkazish maqsadini ko'zlamay saqlab kelgani ma'lum bo'ldi.

– Shahrimizdagi tungi klublardan biriga rahbarlik qilib kelayotgan Q.J. mijozlarni jalb qilish uchun respublikaning turli hududlaridan ish izlab yurgan qizlarni topib, ularni klubga raqqosalik bilan shug'ullanish maqsadida yollab, oson boyishni ko'zlaydi, – deydi katta leytenant Dilmurod Olimov. – Ya'ni, Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanidan bo'lgan X. Laziza (ismlari

o'zgartirildi), parkentlik Sh. Sarvara, shovotlik S. Shoista va samarqandlik A. Mehriarning fuqarolik pasportini olib qo'yish orqali erkin harakatlanishini cheklab, qaram ahvolga solib qo'yadi. Ularni kech soat 19:00 dan tongi soat 03:00 ga qadar klubda mijozlarga ko'proq buyurtmalar berish orqali pul tushirishga majbur qiladi. Kam pul tushirgan qizlarni esa urib, majburiy mehnatga jalb qilib, odam savdosi jinoyatini sodir etadi.

Bunday misollarni yana keltirish mumkin. Katta leytenant Dilmurod Olimov xizmatda doimo hushyorlik va sinchkovlik bilan ish tutadi. Qolaversa, oliy ta'lim muassasalari va mahallalarda giyohvandlik hamda kiberjinoyatlarning oldini olish maqsadida profilaktik targ'ibot tadbirlari o'tkazib keladi. Xizmatda ijobiy natijalarga erishayotgan, sidqidildan o'z vazifasini bajarayotgan lavhamiz qahramoni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib kelinmoqda. Bu uni yanada samarali xizmat qilishga ruhlantiradi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati

AMALIY NATIJALARGA BOY

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy etilgan «Yoshlar kuni» doirasida Toshkent tumani hokimligida ochiq muloqot o'tkazildi. Katta zalda turli taqdirlar jam bo'ldi: kimdir oliygohning faol talabasi, kimdir ishsiz, yana kimdir hayotda adashib, probatsiya nazoratiga tushgan yigit-qizlar. Ularni bir maqsad – rahbarlar bilan ochiq gaplashish istagi birlashtirdi. Viloyat IIBB, DXX viloyat boshqarmasi boshliqlari va tuman hokimi esa yoshlar qarshisida hisobot berish uchun emas, ularning

kasb o'rganish yuzasidanmi, hech bir murojaat e'tibordan chetda qolmadi. Muhimi, mas'ullar har bir muammo-li masalaning ijrosini shaxsan o'z nazoratiga oldi.

Tadbir amaliy natijalarga ham boy bo'ldi. Jumladan, bo'sh ish o'rinlari yarmarkasi tashkil etilib, ko'plab yoshlar shu yerning o'zida ish beruvchilar bilan kelishib oldilar. 16 yoshga to'lgan yigit-qizlarga ilk muhim hujjat – ID kartalar tantanali topshirildi. Itiluvchan va bilimga chanqoq yoshlar esa kitob to'plam-



muammolariga yechim topish uchun hozir bo'lishdi.

Muloqot ochiq va samimiy ruhda o'tdi. Navqiron yigit-qizlar mikrofonni qo'lga olib, nafaqat o'z shaxsiy masalalarini, balki tumanni rivojlantirish bo'yicha takliflarini ham o'rta tashlashdi. Ishsizlik masalasidami, tadbirkorlik uchun kredit olish yoki

lari, esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Bu kabi uchrashuvlar rahbarlar va yoshlar o'rtasidagi masofani qisqartirib, muammolarni xonada emas, joyida hal etishga xizmat qilmoqda.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.



El sog'ligi — yurt boyligi

Xalqimizni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda tadbirkorlarga ko'maklashish maqsadida viloyat IIB JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash bo'linmasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish xizmatlari, sog'liqni saqlash hamda boshqa mutasaddi idoralar vakillari bilan hamkorlikda bozorlarda, savdo majmualari va mahallalarda sifatsiz mahsulotlar sotilishining oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

BOZOR — JONGA OZOR... BO'LMASIN



Shu yil boshidan buyon mavjud dehqon bozorlarida 756 marotaba, mol bozorlarida 103 marotaba, savdo majmualarida esa 756 marotaba maqsadli profilaktik tadbirlar o'tkazilib, bozor ma'muriyati xodimlari mahsulotni saqlash qoidalariga, ozodalikka rioya qilmagan sotuvchilar ogohlantirildi.

Ammo tushuntirishlarimizga qaramasdan yaroqsiz molini yashirinch, arzon narxlarda sotishga urinayotgan kishilar oz bo'lsa-da uchrayapti. Yaroqsiz mahsulotlar sotuvdan olib qo'yilib,

qonuniy tartibda yo'q qilinmoqda.

Shuningdek, xodimlarimiz tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilishdan tashqari mahallalarda ayni bahor oylarida chorva molari o'rtasida uchraydigan yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish, epizootik va epidemik vaziyat barqarorligini ta'minlash borasida ham keng qamrovli profilaktik tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Farhod XUDOYSHUKUROV,
katta leytenant,
Surxondaryo viloyati.



Dolzarb mavzu

ANGRENDAGI FOJIA: daydi itlar muammosiga qachon yechim topiladi?

Kuni kecha ijtimoiy tarmoqlarda Angren shahrida sakkiz yoshli bola ko'chada daydi itlar talashi tufayli, olgan jarohatlari oqibatida vafot etgani haqida muhim xabarlar tarqaldi. Bu fojiali voqea nafaqat mahalliy aholini, balki keng jamoatchilikni ham chuqur larzaga soldi.

Ma'lum bo'lishicha, bola onasi bilan birga shahardagi mahallalardan birida ijarada yashab kelgan. Fojia u maktabdan uyiga qaytayotgan vaqtda sodir bo'lgan. Mahalla aholisining ta'kidlashicha, hududda daydi itlar muammosi ancha vaqtdan beri saqlanib kelmoqda. Hayvonlar ba'zan odamlarga tashlanib, kattalar va bolalar uchun xavf tug'dirgan.

Farzandi maktabdan o'z vaqtida qaytmagach, bolaning onasi uni qidirishga chiqqan va ko'chada og'ir jarohatlangan holatda topgan. Afsuski, shifokorlar yetib kelguniga qadar bolaning hayotini saqlab qolishning iloji bo'lmagan... Bu

fojia jamiyatdagi muammolardan biri — daydi hayvonlar masalasini yana kun tartibiga olib chiqdi. Ayrim hududlarda daydi itlar soni ortib borayotgani aholi xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, maktabga qatnaydigan bolalar va

kekse insonlar uchun bunday holat yanada xavflidir.

O'zim ham ko'pqavatli uyda istiqomat qilaman. Atrofimizda maktab va bog'cha joylashgan. Shu kabi muammolar bizning hududda ham kuzatiladi. Ko'p hollarda ota-onalar farzandlarini maktab yoki bog'chaga o'zlari kuzatib qo'yishga majbur bo'lishadi. Axir bunday xavotir bilan kim ham uyida xotirjam o'tira oladi deysiz?

Har bir ota-ona uchun farzandining xavfsizligi eng

muhim masala. Ayniqsa, ko'chalardagi daydi hayvonlar bilan bog'liq holatlar odamlarni jiddiy tashvishga solmoqda. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: yosh bolalar va o'quvchi-yoshlar xavfsizligini ta'minlash uchun kim mas'ul?

Albatta, bu faqat bir idora yoki tashkilot zimmasiga yuklanadigan vazifa emas. Bu — jamiyat, mahalla va tegishli mutasaddi tashkilotlar hamkorligida hal qilinishi lozim bo'lgan muhim masaladir. Chunki xavfsiz muhit — har bir bolaning asosiy huquqlaridan biri.

Daydi itlar sonining ortib borishi ortida bir necha omil

ri, daydi hayvonlarni hisobga olish, maxsus boshpanalar tashkil etish va aholi o'rtasida uy hayvonlariga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Biroq bu boradagi mas'uliyat faqat tashkilotlar zimmasiga tushib qolmasligi kerak. Har bir fuqaro uy hayvonlarini nazorat qilish orqali jamiyat xavfsizligiga o'z hissasini qo'shishi lozim.

Mavzuga yaqin yana bir holatni eslash joiz. Bu voqea ham Angren shahrida sodir bo'lgan. Ya'ni itlarni doimiy ravishda so'yib kelgan ikki nafar erkakning jinoiy qilmishlari fosh etilgan jamoatchilik o'rtasida katta muhokamalarga sabab bo'lgan edi. Bu holat jamiyatda hayvonlarga nisbatan munosabat masalasi ham dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Chunki bir tomondan hayvonlarga shafqatsiz munosabatga yo'l qo'yib bo'lmaydi,



ikkinchi tomondan esa aholi xavfsizligini ta'minlash ham ustuvor vazifa hisoblanadi. Shuning uchun mazkur masalaga oqilona yondashuv talab etiladi. Eng muhimi, bunday fojialar qayta takrorlanmasligi uchun mas'ul tashkilotlar tomonidan tizimli va samarali choralar ko'rilishi zarur. Jamiyatda mas'uliyatni va befarqlikka qarshi munosabatni kuchayishi esa bunday holatlarining oldini olishda muhim omil bo'ladi.

Mutaxassislar fikricha, mazkur masalani hal etish uchun tizimli choralar zarur. Veterinariya xizmatlari mahalla faollari bilan hamkorlikda ko'chalarni muntazam nazorat qilishi, aholini xavf haqida ogohlantirishi va profilaktik tadbirlarni kuchaytirishi muhim. Bundan tashqari

Adolat Fayziyeva, o'z muxbirimiz.



O'ZBEKISTON

O'ZLASHTIRISHGA QANDAY

KOSMOSNI

HISSA QO'SHGAN?

Mustaqil O'zbekiston tarixida birinchi marta kosmosga sun'iy yo'ldosh chiqarish, shuningdek, birinchi o'zbek kosmonavtini fazoga uchirish ishlari boshlandi. Bu haqda davlatimiz rahbari 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ma'lum qildi. «Ishonchim komilki, bu Yangi O'zbekistonning ilmiy-texnologik rivojlanishiga kuchli turtki bo'ladi va umuman milliy taraqqiyotimizni yangi bosqichga olib chiqadi», – dedi Prezident.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz koinotni zabt etish ishlariga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan. Bu ishlar sobiq ittifoq davrida boshlangan. Bunda Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasining o'rnini alohida aytib o'tish zarur. 1977-yildan 1987-yilgacha zavodda kosmonavtlarni vaznsizlik sharoitida sinash uchun bir nechta «IL-76 MDK» rusumli samolyot-laboratoriyalari qurildi. Ushbu samolyotlarda yuzdan ortiq ittifoq va xorij kosmonavtlari tayyorlandi.

1969-yilda Toshkent mashinasozlik konstruktorlik byurosi (ToshMKB) tashkil etilgan. Byuro Oy va Venerani tadqiq qilish, kosmik uskunalarni, jumladan, diametri 30 metrgacha bo'lgan antennalarni yaratish, tayyorlash, tekshirish, to'liq o'lchamli shtat namunalarni yig'ish va ishlash uchun asboblarni va apparatlar ishlab chiqdi. Byuro oldiga Oy bazalarini loyihalash, Oy tuprog' jinslaridan kislorod va suv olish uchun qurilmalar yaratish vazifasi qo'yildi.

Mutaxassislar Oy tuprog'ini burg'ulash va Yerga yetkazish uchun qurilmalar yaratishdi. Toshkentda ishlab chiqilgan tuprog' olish moslamasi «Luna-24» kosmik apparatiga o'rnatildi. 1976-yilda u Oyda chuqurligi 2 metrdan ortiq bo'lgan quduqni burg'uladi. Olingan tuprog' namunalari o'rganish uchun Yerga yetkazildi. Tahlil natijasida birinchi marta Oyda suv mavjudligi haqida ishonchli dalillar olindi.

ToshMKB kosmosda yangi kompozitsion materiallar yetishtirish uchun qurilmalar yaratish bilan ham shug'ullangan. Toshkentda ishlab chiqilgan maxsus eritish pechlarini va noyob asboblarni yordamida orbital stansiyalarda turli materiallarni eritish va ulardan namunalarni olish bo'yicha tajribalar o'tkazilgan.

Byuro mutaxassislari o'ta yuqori harorat va kuchli kimyoviy ta'sir muhitida ishlay oladigan burg'ulash apparatini ishlab chiqishdi. Qurilma «Venera-13» va «Venera-14» avtomatik kosmik stansiyalariga

o'rnatildi. 1982-yil mart oyida ular Veneraga yumshoq qo'ndi va tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish uchun burg'ulash, olish va tashish bo'yicha noyob tajribalarni amalga oshirdi.

1981-yilda Chirchiqda ToshMKB filiali – «Kompozit» tajriba-eksperimental zavodi tashkil etildi. Unda kompozit materiallardan kosmik konstruksiyalar uchun noyob qismlar va uzellar tayyorlangan. Zavod kompozitsion shisha va uglerod tolasi hamda ulardan tayyorlangan buyumlar ishlab chiqargan. Uglerod tolasi – yengil, ammo po'lat kabi mustahkam material bo'lib, aviakosmik, harbiy maqsadlarda, shuningdek, avtomobil ishlab chiqarishda

yig'ish-sinov poligoni qurildi. Unda ko'plab stendlari va mexanik korpuslari, radiotelemektrik va boshqa o'lchash apparatlari, yig'ish sexlari va ustaxonalari bo'lgan noyob eksperimental inshootlar yaratildi va sinovdan o'tkazildi.

1982-yilda Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi Suffa platosida radioastronomik rasadxona qurilishi boshlandi. Uning asosiy obyekti – 70 metrli radioteleskop bo'lib, u millimetr diapazonda kosmik nurlanishni qayd etish uchun noyob vosita hisoblangan. Shunga o'xshash uskuna faqat San-Diyego (AQSH) da mavjud.


Toshkent viloyatining Parkent tumanida joylashgan O'zbekiston Fanlar akademiyasining «Fizika-Quyosh» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasini ham alohida ta'kidlash joiz. Katta quyosh pechida «Buran» orbital kemasi himoya qoplamasining yuqori haroratga bardosh berish sinovlari o'tkazildi. Bu tadqiqotlar yurtimizning kosmik izlanishlaridagi salmoqli hissasidir.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida «O'zbekkosmos» agentligi tashkil etildi. Xorijiy mamlakatlarning milliy kosmik tashkilotlari, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Kosmik masalalar bo'yicha (UNOOSA) boshqarmasi bilan aloqalar yo'lga qo'yildi. 2002-yilda «O'zbekkosmos» faoliyati tugatildi. Fanlar akademiyasi Kosmik tadqiqotlar markazi tashkil etilib, unga ikkita korxona kiritildi, qolganlari turli vazirlik va idoralarga topshirildi.

2019-yil 30-avgustda Prezidentimiz O'zbekistonda kosmik faoliyatni rivojlantirish to'g'risidagi farmonni imzoladi. Farmonga muvofiq, «O'zbekkosmos» agentligi tashkil etildi. Agentlikning vazifalari orasida Yerni masofadan zondlash tizimini hamda sun'iy yo'ldosh aloqasi tarmog'ini yaratish, sun'iy yo'ldosh navigatsiya komplekslaridan foydalanish va boshqalar bor.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish zamonaviy ish o'rinlarini yaratish, ilm-fanni rivojlantirish, kosmik tadqiqotlar sohasida mamlakatning texnologik mustaqilligini, axborot xavfsizligini ta'minlash va O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshirish imkonini beradi.

G'ayratulla SHUKUROV
tayyorladi.



Suffa platosidagi radioastronomik rasadxona.

qo'llanilgan. Bugungi kunda kundalik hayotda ham keng qo'llanilmoqda.

1988-yilda Moskva kosmik markazlaridan birining filiali sifatida Toshkent kosmik asbobsozlik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Institutning yo'nalishlaridan biri tabiiy resurslarni aniqlash va xo'jalik-ekologik faoliyatni tahlil qilish, qishloq xo'jaligi ekinlarining holatini o'rganish uchun O'zbekiston hududining kosmik tasvirlarini qayta ishlash edi.

Ilmiy-tadqiqot instituti qishloq xo'jaligi, qurilish, kartografiya, geologiya, geofizika, suv va mineral resurslar sohasida qimmatli natijalarga erishdi. Institut Yerni masofadan zondlash sohasida 50 dan ortiq mutaxassislar tayyorladi.

1980-yillar boshida «Oy» va «Energiya», «Buran» dasturlari uchun Toshkent viloyatining Parkent tumanida «Nevich» nomidagi ToshMKB



Jarayon

NEGA DARSGA
BORMADING, BOLAM?

yoxud ta'sirchan targ'ibot tadbirlari

Farg'ona viloyati IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi tomonidan voyaga yetmaganlarning darslarga muntazam qatnashishini ta'minlash maqsadida barcha shahar-tumanlarda kunlik monitoring va nazorat ishlari yo'lga qo'yildi. Masalan, viloyatda xizmat olib borayotgan 185 nafar voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog 46 ta guruhga bo'lingan holda «Davomat» hamda «Tig'» tadbirlarini amalga oshirdi.

Tadbirda jalb etilgan guruhlar tomonidan umumta'lim maktablaridagi 537 ta sinf qamrab olindi. Shu kungi o'rganishlarda 93,1 foiz o'quvchilar dars mashg'ulotlarida qatnashayotgani ma'lum bo'ldi.

Achinarlisi shundaki, ko'cha va jamoat joylarida o'tkazilgan o'rganishlarda dars mashg'ulotlariga sababsiz qatnashmay yurgan 70 nafar voyaga yetmagan aniqlanib, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuv-

yuzlandi inspektor-psixologlar bemaqsad yurgan o'quvchilarga. – Axir, sen yoshlikda ilm va hunar o'rganib, kelajaging poydevorini qurishing kerakku. Kompyuterdagi jangari o'yinlar va telefondagi bachkana videolar senga bilim beradimi? Nega qimmatli vaqtingni foydasiz narsalarga sarflayapsan?

Bu savolni eshitgan bolalarning barchasi jo'yali javob qaytarolmay, yerga qarab qolishdi.

kechirilib, 13 nafar voyaga yetmagan nazoratsiz yurgani aniqlandi. Ularning har biriga bayonnoma rasmiylashtirilib, ota-onalariga chora ko'rildi.

Huquqbuzarlik sodir etgan yoshlar bilan o'tkazilgan suhbatlarda tungi vaqtlarda ko'chada yurishning tartib-tamoyillari atroflicha tushuntirilib, zarur maslahatlar berildi. Shuningdek, giyohvandlik, kiberjinoyatlar, tig'li jism olib yurishning salbiy oqibatlar haqida ogohlantiruvchi bukletlar tarqatildi.

Qo'qon universiteti, FarDU sirtqi ta'lim fakulteti, Toshloq tumanidagi 1-sonli politexnikum, Farg'ona shahridagi 1-, 9-, 42-maktablar hamda Marg'ilon shahridagi 1- va 2-sonli tibbiyot texnikumlarida tash-



chi shaxslarga nisbatan ma'muriy bayonnomalari rasmiylashtirildi.

«Tig'» tadbiri davomida 15 nafar voyaga yetmagan yonidan 9 ta pichoq hamda 6 ta boshqa turdagi o'tkir tig'li jism topildi.

– Nega darsga bormading, bolam? – deya

Bundan tashqari, soat 22:00 dan so'ng voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va bemaqsad yurganligini aniqlash maqsadida prokuratura, ichki ishlar va milliy gvardiya xodimlari tomonidan hamkorlikdagi tungi reydtadbirlari tashkil etildi. Tadbir jarayonida tungi klublar, ko'ngilochar joylar, kompyuter o'yinxonalari va boshqa maskanlar ko'zdan

kil etilgan uchrashuvlarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning yoshlar hayotiga zararli ta'siri haqida tushunchalar berish bilan birga, «Badal» nomli videorolik namoyish etildi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.
Farg'ona viloyati.

Bir tuman tarixi

MUHABBAT RAMZI
– SHAHRIXON!

Andijon viloyatining Jalaquduq tumanidagi «Oyim» qishlog'i XIX asrning birinchi yarmida yashab, ijod qilgan mashhur shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiysi Nodirabegim (Mohlaroyim)ning sevimli qadamjolaridan biri bo'lgani haqida tarixiy rivoyatlar saqlanib qolgan. Shu bois ushbu qishloq uning nomi bilan «Oyim» deb ataladi.



Ushbu manzilga safari chog'ida har gal hozirgi Shahrixon tumani o'rnidagi so'lim go'shada biroz dam olib, so'ng yana yo'lga tushishni odat qilgani aytiladi. Manzilning tabiati, suvga yaqinligi va joylashuvining qulayligi Nodirabegimning e'tiborini tortadi. Shu bois u turmush o'rtog'i – Qo'qon xoni Amir Umarxonga shu yerda yangi shahar barpo etish taklifini bildiradi. 1810–1822-yillarda hukmronlik qilgan Umarxon manzilni o'rgangach, ayolining fikrini ma'qul ko'radi va bu yerda obodonlashtirish ishlarini boshlashga farmon beradi.

O'sha davr shaharsozlik an'alariga ko'ra, mustaqil shahar barpo etish uchun kamida o'n ikki yo'nalishda hunarmandchilik shakllangan bo'lishi shart edi. Chunki har bir maskan o'z nonvoyi, qassobi, temirchisi, kuloli, chevare, zargari va boshqa zarur hunar egalari ega bo'lmasa, uning iqtisodiy mustaqilligi ta'minlanmasdi. Shu maqsadda hunarmandchilik rivoj topgan Marg'ilon shahridan 12 turdagi kasb egalari ko'chirib keltiriladi. Ana shu ustalar yangi bozorlar, ustaxonalar va mahallalarga asos solib, shaharning ilk iqtisodiy poydevorini yaratishadi. Shu tariqa Shahrixon (Xonlar shahri) hunarmandlar shahri sifatida shakllana boshlaydi.

Oradan vaqt o'tib, ushbu maskan ma'muriy jihatdan ham mustahkamlandi. 1926-yil 29-sentabrda tuman sifatida rasman tashkil etildi. Bugun u Andijon viloyati tarkibidagi yirik hududlardan biri hisoblanadi. Umumiy maydoni qariyb 290 kvadrat kilometrni tashkil etadi. Doimiy yashovchilar soni 320 ming nafardan ortiq. Tarkibiga 1 ta shahar, 3 ta shaharcha va 70 dan ziyod mahalla fuqarolar yig'ini kiradi.

Iqtisodiy jihatdan tuman agrar yo'nalishga ixtisoslashgan. Serhosil yerlarda paxta, g'alla, sabzavot va bog'dorchilik mahsulotlari yetishtiriladi. Sanoat tarmoqlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, tikuvchilik, qurilish materiallari tayyorlash yo'nalishlari shakllangan. Yuzlab kichik va o'rta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Yalpi hududiy mahsulot hajmi yil sayin oshib bormoqda. Hunarmandchilik sohasida ham yuzlab ustalar mehnat qiladi. Ayniqsa, pichoqchilik, temirchilik va tikuvchilik an'analari saqlanib qolgan.


Ijtimoiy infratuzilmada ham yangilanish jarayonlari kuzatilmoqda. Ta'lim muassasalari ta'mirlanib, tibbiy xizmat ko'lami kengaymoqda, yo'l va muhandislik tarmoqlari bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilinmoqda. Bu o'zgarishlar hududning zamonaviy qiyofasini belgilab bermoqda.

Agar Tojmahalni Shoh Jahon o'z rafiqasi Mumtoz Mahalga bo'lgan muhabbati ramzi sifatida bunyod etgan bo'lsa, vodiy bag'ridagi Shahrixon ham Amir Umarxonning Nodirabegimga bo'lgan ehtiromi va mehrining timsoli, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Shahrixon tarixi nafaqat iqtisodiy yoki ma'muriy taraqqiyot, balki muhabbat, e'tibor va ma'naviy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan tarixdir.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.
Andijon viloyati.

Salomatlik saboqlari

QON BOSIMI NEGA OSHADI?



Qon bosimi nima? Bu haqda nimalarni bilish kerak? Uni me'yorda ushlab uchun qanday tavsiyalarga amal qilish lozim?

Qon bosimi – tomirlarda oqayotgan qonning shu tomirlar devoriga ko'rsatadigan bosimi (tazyiqi). U yurakning ishlashi va tomirlar devorining qarshiligi tufayli vujudga keladi. Arteriyalar ichida arterial, kapillyarlar ichida kapillyar va venalar ichida venoz bosim bo'ladi. Qon bosimi qonning tomirlar tizimi bo'ylab oqishiga imkon beradi, shu tariqa organizm to'qimalarida moddalar almashinuvini ta'minlaydi.

Gipertoniya – hayot uchun xavfli kasallik. U insult, infarkt, buyrak patologiyalari va demensiyaning, boshqacha aytganda, o'lim va nogironlikning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Bu xastalik asosan 40 yoshdan oshganlarda kuzatiladi. Lekin so'nggi yillarda yoshlar orasida ham tez-tez uchramoqda.

Yuqori qon bosimi bosh og'rig'i, quloqlarda shovqin, ko'rish holati susayishi, holsizlik, uyqu buzilishi, bosh aylanishi, yurak urishi tezlashishi kabi belgilar bilan namoyon bo'ladi. Shuningdek, tez-tez burun qonashi, qayt qilish, xotira buzilishi, ko'zda kuchli bosim, to'qimalar-

da shishlar paydo bo'lishi kabi qo'shimcha alomatlar ham namoyon bo'lishi mumkin.

Gipertoniyaning kelib chiqish sababi asosan davomiy stress va tushkunlik bilan bog'liq. Bundan tashqari, miya chayqalishiga uchragan odamlarda ham bu pa-



tologiya paydo bo'lishi xavfi yuqori. Irsiy moyillik ham shu omillar ro'yxatida, albatta.

Kasallik rivojlanishiga ta'sir o'tkazuvchi omillardan asosiysi – bu kamharakat turmush tarzidir. Yosh o'tgan sayin ateroskleroz rivojlanishi ehtimoli oshadi. Sho'r va yog'li mahsulotlar, spirtli, gazli ichimliklar iste'mol qilish, chekish, ortiqcha vazn, metabolik va endokrin kasalliklar, bosh miya jarohatlari ham yurak-qon tomir tizimiga bosim o'tkazmay qolmaydi.

Bemorga aniq tashxis qo'yish uchun bir qator laboratoriya tahlillari va

instrumental tekshiruvlar o'tkazish talab etiladi. Shu tarzda kasallikning bosqichi va gipertoniya darajasi aniqlanib, samarali davolash usuli tanlanadi. **Muolaja davomida bemorlarga stress yoki hissiy zo'riqishdan yiroq bo'lish, ochiq havoda sayr qilish tavsiya etiladi.**

Taomnomaga servitamin, minerallarga boy bo'lgan va kasallikka qarshi kurashishga yordam beruvchi sabzavotlar, mevalar, rezavorlar, ko'katlar, sut mahsulotlari, parhez bop go'sht, loviya, guruch, grechka kabi mahsulotlardan ko'proq kiritish darkor. Tandirdan uzilgan yangi non o'rni-

ga bir-ikki kun turganini iste'mol qilish foydali. Qon bosimi yuqori yuradigan bemorlar osh tuzi iste'molini kamaytirishi lozim.

Gipertoniyaning oldini olish uchun esa qon bosimini muntazam o'lchab borish, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, stressni kamaytirish va shifokor ko'rigidan o'tib turish zarur. Bu infarkt, insult va boshqa og'ir kasalliklar profilaktikasida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Gulnora ISMAILOVA,
Toshkent shahar
IIBB Tibbiyot bo'limi
poliklinikasi
kardiolog-shifokori.

Havo-tomchi yo'li orqali o'tadigan suvchechak o'tkir yuqumli virusli kasallik bo'lib, aholi orasida qish-bahor mavsumida ko'proq tarqaladi. U butun tana bo'ylab qizil toshmalar va donachalar paydo bo'lishi, bosh og'rig'i, ishtaha yo'qolishi va isitma bilan namoyon bo'ladi.

SUVCHECHAKDAN EHTIYOT BO'LING!

Varicella Zoster virusi ushbu xastalik qo'zgatuvchisi hisoblanadi. Kasallikning uchinchi-to'rtinchi kunidan boshlab tanada asta-sekin toshmalar paydo bo'ladi. Virus tashqi muhitga chidamsiz bo'lib, quyosh nurlari qizdirish va ultrabinafsha nurlar ta'sirida tez nobud bo'ladi. Organizmdan tashqarida uning yashovchanligi o'rtacha 10 daqiqani tashkil etadi.

Bemor kasallikni toshma toshishidan 24 soat oldin va toshmalarning usti qobiq bilan qoplangan muddat oralig'ida atrofdagilarga yuqtirishi mumkin. So'lak, yo'tal va aksirish, havo-tomchi zarrachalari, pufakchalardagi suyuqlikning sog'lom odam teri qoplami yoki shilliq qavatiga tushishi keng tarqalgan yuqish yo'llaridir.

Suvchechakning yashirin davri 7-21 kun davom etadi. Ya'ni infeksiya toshma va boshqa alomatlar boshlanishidan shuncha kun oldin organizmga tushgan bo'ladi. Ilgari suvchechak bilan kasallanmagan odam bu kasallikka chalinishi mumkin. Suvchechakni davolash ham ambulator (yengil hollarda), ham statsionarda (asoratlar bo'lganda) sharoitda amalga oshiriladi. Bunda ko'proq dam olish tavsiya etiladi.

Kompleks tadbirlar, tartib, parhez, dori-darmonlar bilan davolash, shuningdek xonani shamollatish, gigiyena qoidalariga amal qilish, isitmani jismoniy usullar bilan tushirish eng samarali davo choralaridir. Isitma bilan kechadigan davrda yotoq tartibiga amal qilish tav-

siya etiladi. Qichishishni bartaraf etish uchun antigistaminlar yoki malhamlar buyurilishi mumkin. Kasallikdan so'ng terida izlar qolmasligi uchun hosil bo'lgan qobiqlarni yulib olmaslik kerak.

Organizm ko'pincha suvchechak bilan mustaqil kurasha oladi, kasallik namoyon bo'lganidan bir-ikki hafta o'tgach, normal faoliyatga qaytishi mumkin bo'ladi. Odatda insonlar hayoti davomida bu kasallikka bir marta duchor bo'lishadi, takroran



kuzatilishi kamdan-kam hollarda qayd qilingan. Kasallikning oldini olishning o'ziga xos usuli vaksinatsiya, ya'ni emlash hisoblanadi. U uzoq yillar davomida saqlanib turadigan barqaror immunitetni shakllantiradi. Virus tarqalishining oldini olish uchun ota-onalarga ushbu xastalikka chalingan farzandlarini to'g'ri parvarishlash, maktab yoki bog'chaga yubormaslik tavsiya etiladi. Virus tashqi muhitga chidamsizligi tufayli xona dezinfeksiyasi talab etilmaydi. Shunchaki xonani vaqti-vaqti bilan shamollatib, nam latta bilan tozalash talab qilinadi.

Shamsiddin ATAMURADOV,
Harbiy-tibbiy institut
dotsenti.

Ro'ziboy KUNISHEV,
Toshkent shahar IIBB
Tibbiyot bo'limi
SENM shifokor-epidemiologi.



Xizmat joyi — Qorovul qo'shinlari

«ALVON BERET» SOHIBI

Farg'ona viloyatining Toshloq tumanida tavallud topgan lavhamiz qahramoni bolaligidan harbiylikka qiziqish bilan ulg'aydi. Oilada yolg'iz o'g'il bo'lgani uchun uning orzu-niyatlari ota-onasini biroz o'ylantirardi. Ammo ular farzandining ra'yini qaytarishmadi.

Jaloliddin Omonov Qurolli Kuchlar Akademiyasini bitirgach, xizmatni dastlab Chegara qo'shinlarida boshladi. Bu yerda harbiy intizomga o'rgandi, irodasi va sabr-toqati yanada toblandi. Keyinchalik Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlariga qarashli Qashqadaryo viloyatida joylashgan 7533-harbiy qismda faoliyatini davom ettirdi. Ushbu jamoada to'plagan tajribasi va orttirgan mahorati kelgusida xizmat pillapoyasidan yuqorilashida muhim o'rin tutdi.

Bugungi kunda u Navoiy viloyatida joylashgan 7532-harbiy qism maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbarlik vzvodi komandiri sifatida shaxsiy tarkib bilan muntazam ravishda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etib kelyapti. Ushbu jarayonda harbiy xizmatchilarning jismoniy chiniqishi va jangovar mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratadi.

Kapitan Omonov bir qator ko'rik-tanlovlarda ham munosib ishtirok etgan. Jumladan, 2022-yilda

«Dovyurak jangchi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. 2023-yilda esa «Alvon beret» sohibi bo'ldi. Shuningdek, Qorovul qo'shinlari miqyosida o'tkazilgan «Eng ilg'or kasb mutaxassisi» ko'rik-tanlovida «Eng ilg'or vzvod komandiri» hamda «Eng ilg'or guruh komandiri» nominatsiyalarida bir necha bor g'oliblikni qo'lga kiritgan.

Sport qahramonimiz hayotining ajralmas qismiga aylangan. U yengil atletika, ko'pkurash va harbiy sport turlari bilan muntazam shug'ullanib, o'zining jismoniy tayyorgarligini doimo yuqori darajada saqlab kelmoqda. Bu esa qo'l ostidagi harbiy xizmatchilar uchun nafaqat shaxsiy namuna, balki kuchli motivatsiya manbayi bo'lib xizmat qiladi. O'lis Farg'onada istiqomat qiladigan ota-onasining duolari va ishonchi esa Jaloliddin Omonovga katta kuch va ruhiy quvvat bag'ishlaydi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(16 – 22 март)

Қўй (21.03 – 20.04). Келаётган ҳафта атрофдаги одамлар орасидаги обрў ва нуфузингизни ошириш, ижодкорлик ва ҳамкорликни ривожлантириш учун мақбул даврдир. Жисмонан оғир вазифалардан четлашиб, таъбни хира қилувчи ва кўнгилни оғритувчи барча ҳолатлардан имкон қадар узоқлашинг.

Бузоқ (21.04 – 20.05). Ҳаётингизда ўзига хос бурилиш кутилмоқда. Янги дўст, ҳамкорлар орттирасиз. Бу даврда жуда муҳим ишлар билан банд бўласиз. Ўйин-кулгига бўлган иштиёқ нақадар кучли бўлмасин, мазкур ҳафтада сиздан жиддий ва вазмин бўлиш талаб этилади. Омадга эришингиз кўп жиҳатдан шунга боғлиқ. Хизмат юзасидан мартабангиз ошиши кутилмоқда.

Эгизаклар (21.05 – 21.06). Ижодий ишга шўнғиб кетасиз. Бундан ташқари, шахсий юмушлар билан кўпроқ шуғулланишга тўғри келади. Эндигина бошлаган режа ва лойиҳаларни муваффақият билан давом эттирасиз. Сиз катта молиявий фойда келтирадиган лойиҳа устида ишлаяпсиз.

Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Бутун ҳафта давомида оилангиз билан боғлиқ муаммоларни ҳал этиш учун кўп куч сарфлашингизга тўғри келади. Ушбу даврда янги режалар устида бош қотирмаганингиз маъқул. Негаки, ҳали ниҳоясига етмаган ишларингиз ҳам бир талай. Мўлжаллаб юрган олис сафарингиз амалга ошади.

Арслон (23.07 – 23.08). Бу ҳафта сизни қизиқтирадиган ва катта таваккалчилик билан бошлангандиган таклиф келиб тушиши мумкин. Натижасига тўлиқ ва қатъий ишонч бўлсагина уни қабул қилинг. Келгусида хотиржам дам олиш учун айна дамда зўр куч-ғайрат билан меҳнат қилган маъқул.

Паризод (24.08 – 23.09). Ушбу кунларда амалга оширилган саъй-ҳаракатлар, айниқса, ишбилармон одамлар учун омадли кечади. Ҳар қандай вазиятда ҳам жанжал ва тортишувлардан узоқ туриб, ҳеч ким билан низога бормасликка ҳаракат қилинг. Ён-атрофдагилар билан имкон қадар хушмуомала бўлинг.

Тарози (24.09 – 23.10). Мазкур ҳафтада иш билан боғлиқ барча мажбуриятларни астойдил бажаришга ҳаракат қилинг. Бу даврда бир нечта вазифаларни бирданига амалга оширишга тўғри келади. Ҳафта охирига бориб иложи борица кўпроқ иш билан шуғулланиш пайида бўлинг.

Чаён (24.10 – 22.11). Бу кунларда имкон қадар ишсиз ўтирманг, чунки келаётган ҳафта моддий ҳолатни анчайин яхшилаб олиш учун барча имкониятларни тақдим этади. Ҳаётингизга ижобий таъсир кўрсатадиган одамлар билан танишиш эҳтимоли юксак. Бу даврда ўта ишонувчанлик сизга панд беради. Якшанба ҳар жабҳада ижобий натижалар кутилмоқда.

Ўқотар (23.11 – 21.12). Бу ҳафта сиз учун жуда самарали ва омадли давр. Уйда кўп нарсага улгура олмасангиз ҳам, ишда барча вазифаларни муваффақиятли амалга оширасиз. Молиявий масалаларда ҳам қийинчиликка дуч келмайсиз.

Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Шахсий ҳаётингизда фавқулодда муваффақиятлар кутилмоқда. Аммо шуғулланаётган иш ва бизнесингизни ҳам унутиб қўйманг. Янги лойиҳа ва топшириқлар туфайли шахсий ҳаёт иккинчи даражага ўтиб қолиши мумкин. Ҳафта сўнгида кўнгилсиз вазиятлар юзага келиши мумкин.

Қовға (21.01 – 19.02). Оилавий муносабатларга путур етмаслиги учун жаҳл ва ғазабга эрк бермай, ақл билан иш юритинг. Яқинларингизнинг кўнглини оғритишдан имкон қадар йироқ туринг. Бу ҳафта йирик сарф-харажатларни четга суриб туринг. Ҳафта сўнгида уйдан ташқарига чиқиб, сизга келиб тушган фойдали таклифларни қабул қилинг.

Балиқ (20.02 – 20.03). Ҳафтанинг биринчи ярмида муҳим воқеа ва янгиликлар бўлиши кутилмоқда. Ўтмиш қанчалик ёқимли ва ажойиб кўринмасин, унга қаттиқ боғланиб қолишдан сақланг. Жума куни сиз учун қадрли бўлган инсон билан эски хотиралар тикланиши мумкин. Сиқилманг, якшанба кундаги учрашувдан сўнг ҳаммаси ўз ўрнига тушади.



Ikkinchi iste'dod

TOMIRIDA BERDAQ QONI BOR

Yaratgan har bir insonga biror yo'nalish bo'yicha qobiliyat ato etadi. Agar kishi o'z iqtidorini vaqtida payqab, uzluksiz rivojlantirib borsa, muvaffaqiyatga erishishi tayin. Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV huzuridagi Qo'riqlash xizmatining Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i, podpolkovnik Kuanish Niyetullayev bolaligidan adabiyotga va san'atga qiziqardi.

– Shoirlik menga ajdodlarimizdan meros desam adashmagan bo'laman. Chunki men qoraqalpoq xalqining mumtoz shoiri Berdaq Qarg'aboy o'g'lining avlodlaridan bo'laman. Ko'pincha ilhom menga tunda, atrof osuda bo'lgan paytda keladi. Bugunga qadar yozgan she'rlarimni jamlab, kelajakda ikkita kitob chop etishni niyat qilganman, – deydi u biz bilan suhbatda.

Lavhamiz qahramoni 1999–2004-yillari Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil oladi. Ta-

labalik kezlari institutning «To'maris» ansambli xonandasi sifatida respublika miqyosidagi tadbirlarda ishtirok etadi. «Turon» quvnoqlar va zukkolar jaomasining tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritishiga ham munosib hissa qo'shadi.

2007-yilda u Qo'ng'iro'tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'linmasi militsioneri sifatida ushbu tizimdagi faoliyatini boshlaydi. Shundan buyon o'tgan davr ichida turli lavozimlarda xizmat qilib, boy tajriba to'pladi. Uning uchun ijod va xizmatda bir-birini to'ldiradigan jihatlari talaygina. Chunki

qo'shiq va she'r insonning ko'nglini poklab, unga ma'naviy ozuqa bersa, el-yurt tinchlik-osoyishtaligini ta'minlash sharafliburch hisoblanadi. Uning she'rlari asosida yaratilgan «Muqaddas Vatan», «Himoya qil sen Vatanni», «Qoraqalpog'istonim» kabi qo'shiqlar bayram tadbirlarida yangrab kelmoqda.

Albatta, K.Niyetullayevning xizmatda va ijoddagi yutuqlarida turmush o'rtog'ining qo'llab-quvvatlashi muhim o'rin tutadi. U umr yo'ldoshi Nasiba Dautbayeva bilan birgalikda 2 o'g'il va 2 qizni tarbiyalab voyaga yetkaz-



moqda. Tavsianoma asosida o'qishga kirgan o'g'li Ulug'bek Klishbayev Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining 2-bosqichida tahsil olmoqda.

Qahramonimiz bir qo'lida qurol, ikkinchisida qalam tutgan inson. Uning hayoti bizga shuni anglatadiki, Vatanga xizmat qilish uchun nafaqat jismoniy kuch, balki yuksak ma'naviy

qudrat ham zarur. Berdaq bobosining munosib vorisi sifatida u ijod qilish barobarida, huquq-tartibotni mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida fidoyilik va sadoqat bilan xizmat qilmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Patrul shahar kezadi

XIZMATDA HAMISHA HUSHYOR

Farg'ona viloyati ichki ishlar organlarida juda ko'plab yosh va fidoyi xodimlar xizmat qilishmoqda. Viloyat IIB JXX JTSB patrul-post xizmati otryadi uchinchi guruh inspektori, safdor Sherbek Boyqo'ziyev haqida ham ana shunday iliq fikrlarni aytish o'rinli.

Lavhamiz qahramoni Farg'ona shahrida namunali oilada kamolga yetgan. Otasi Murodiljon Boyqo'ziyev hamda onasi Marhabo Boyqo'ziyevlarning bergan to'g'ri tarbiyasi, bolalikdan halollik va mehnatsevarlikka o'rgan-gani bugungi yutuqlarida muhim poydevor vazifasini o'tayapti.

Farg'ona politexnika institutida tahsil olib, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallagan Sherbek 2022-yilda bolalikdan o'zi orzu qilgan sohaga ishga kirdi. Qisqa fursatdayoq patrul-post xizmati otryadi safida ishlayotgan eng faol yosh xodimlar qatorida tilga olina boshladi.

U Farg'ona shahri hududida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida samarali xizmat qilmoqda. Fuqarolar bilan muloqotda esa xushmuomalalik va adolat tamoyillariga amal qiladi.

Tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, sohada yangiliklar va qonunchilikdagi o'zgarishlardan doimiy ravishda xabardor



bo'lib borayotgani uning kasbiy mahoratini oshirishga, safdoshlar orasida hurmat qozonishiga xizmat qilmoqda.

– Otryadimizda shaxsiy tarkibning jismoniy va jangovar tayyorgarligini oshirishga jiddiy e'tibor beriladi, – deydi u. – Nazariy va amaliy mashg'ulotlar, sport musobaqalari xodimlarni har tomonlama chiniqtirsa, minglab kitob fondiga ega kutubxona ma'naviy dunyoqarashimizni boyitishda

muhim poydevor vazifasini o'tayapti. Men ham barcha sport va jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida muntazam qatnashib kelyapman. Bo'sh vaqtlarimda esa kutubxonaga kirib, siyosiy va huquqiy kitoblarni o'qishga ham vaqt topaman.

Lavhamiz qahramoni jinoyat va huquqbuzarliklarni «issiq izida» fosh etishda doim faol ishtirok etib kelayotgani tahsinga loyiq. Yaqinda Farg'ona shahri-

ning Qirguli mavzesida hamkasbi, safdor Nodirbek Abdurahmonov bilan birga xizmat olib borish paytida psixotrop moddalar savdosini o'ziga kasb qilib olgan shaxsni jinoyat ustida qo'lga olishdi.

«Spark» avtomashinasida haydovchisi uzoqdan patrullarni ko'rib, o'zini bezovta tuta boshladi. Safdor Sherbek Boyqo'ziyev esa uni zimdan kuza-tib turgan edi. Shu bois shubhali tarzda harakat-

lanayotgan haydovchining avtomashinasini to'xtatib, tekshirib ko'rishga qaror qilishdi. Haydovchi bejiz oyog'i kuygan tovuqdek bezovtalanmagan ekan. Uning avtomashinasi xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganida, 275 dona qadoqda ikki xil nomdagi hujjatsiz dori vositalari aniqlandi. Ushbu dorilarning bir turdagisi psixotrop moddalar turkumiga kirishi ma'lum bo'ldi.

Farg'ona shahrining Neftchilar ko'chasida safdoshlari bilan birga xizmat olib borayotgan yosh patrul yana bir shubhali shaxsga ro'baro' keldi. O'zini Marg'ilon shahrida yashovchi fuqaro deya tanishtirgan ushbu shaxsning yoni xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganida, gashish giyohvand moddasi topildi.

Sh. Boyqo'ziyev faoliyatidan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ona Vatan tinchligi va xavfsizligi yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan va bundan doim faxrlanadigan lavhamiz qahramoni kabi shijoatli xodimlar yurt osoyishtaligining mustahkam qalqonlaridir.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



ИНСОННИНГ ЯҚИН ДЎСТИ

Инсоният тарихи от билан чамбарчас боғлиқ. Қадимги даврлардан от инсоннинг ишончли ҳамкори ва сафарларда йўлдоши бўлиб келган. Лашкарнинг қудрати, савдо карвонлари тезлиги, давлатлар таъсири кўп жиҳатдан от зотларининг сифатига боғлиқ бўлган. Шу боис айрим от зотлари маданий ва тарихий мерос сифатида ҳам қадрланади. Миср ва Бобилда олиб борилган қазилма ишларида инсон билан ёнма-ён дафн этилган отлар суякларининг топилиши ҳам кўп нарсани англатади.

ОЛТИН ЁЛЛИ ТУЛПОР

Марказий Осиё ҳудудида шаклланган Аҳалтеке зоти дунёдаги энг қадимий ва энг ноёб зотлардан бири ҳисобланади. Олимлар



унинг тарихи камида уч минг йилга бориб тақалишини таъкидлайдилар. Қадимги Эрон подшолари армиясида айнан шу зотга яқин отлар бўлгани ҳақида тарихий манбаларда қайдлар учрайди.

Аҳалтеке отларининг энг ажралиб турадиган жиҳати — уларнинг юнги қуёш нурида олтинсимон тусда ялтираши. Шу сабабли бу зот «олтин от» деб ҳам аталади. Улар жуда чидамли бўлиб, чўл шароитида узоқ масофаларни кам сув ва кам озуқа билан босиб ўта олади. Баъзи тарихий юришларда бу зот вакиллари бир неча юз километрлик масофани деярли тўхтовсиз босиб ўтгани ҳақида маълумотлар бор.

НАФОСАТ ВА САДОҚАТ РАМЗИ

Араб отларини ана шундай таърифласа бўлади. Улар инсоният тамаддуни тарихида алоҳида ўрин тутати. Уларнинг шаклу шамойили нафис, боши кичик, кўзлари катта ва ифодали, бўйни эса камонсимон эгилган бўлади. Бу зот нафақат гўзаллиги, балки генетик аҳамияти билан ҳам машҳур. Дунёдаги кўплаб спорт ва пойга зотлари араб оти қони билан бойитилган.

Ривоятларга кўра, араб жангчилари ўз отларини чодирларида боққан, уларга оила аъзосидек муносабатда бўлган. Отнинг садоқати ва ақллилиги ҳақида кўплаб ҳикоялар сақланиб қолган. Айрим манбаларда айтилишича, араб оти хавфни олдиндан сезиб, эгасини огоҳлантирган ҳолатлар ҳам бўлган.

ТЕЗЛИК ҚИРОЛИ

Англияда кенг тарқалган торобред зоти асосан пойга учун яратилган. XVII–XVIII асрларда араб отлари ва маҳаллий зотлар қони аралаштирилиб, юқори тезликка эга от олиш мақсад қилинган. Натижада дунёдаги энг тез югурадиган зот пайдо бўлди.

Бу зот вакиллари қисқа масофада соатига 60–70 километр тезликда югура

олади. Айнан торобред зотига мансуб «Секретариат» лақабли машҳур пойга оти 1973 йилда ўрнатган рекордлари билан тарихда қолган. Унинг юраги оддий отникига қараганда анча катта бўлгани илмий тадқиқотларда қайд этилган. Бу эса қон айланиш тизимининг кучли эканини кўрсатади.

ГЎЗАЛЛИК ВА ШОҲОНАЛИК РАМЗИ

Нидерландияда пайдо бўлган фриз зоти ташқи кўриниши билан дарҳол диққатни тартади. Улар одатда қора рангли, узун ва жингалак ёлли, бақувват, гўзал қоматли бўлади. Бу зот кўпинча тарихий фильмлар ва сахна томошаларида иштирок этади. Ўрта асрларда рицарлар айнан шундай бақувват отларга мингани тахмин қилинади. Фриз отлари



нафақат кучли, балки итоткор ва юввош бўлади. Шу боис улардан маросимлар ва кўргазмали чиқишларида ҳам кенг фойдаланилади.

ҲАҚИҚИЙ МЕҲНАТКАШ

Шотландияда яратилган клайдсдейл зоти оғир юкташиш учун мўлжалланган. Бу зот вакиллари бўйи 180 сантиметрдан ошиб кетиши мумкин.



Оёқларидаги оқ «пайпоқ»-симон юнглари уларни бошқа зотлардан ажратиб туради.

Саноат инқилоби даврида бу зот шахарларда арава ва оғир ускуналарни тортишда кенг ишлатилган. Улар ювошлиги, кучлилиги ва меҳнатсеварлиги билан машҳур бўлган.

КЎПКАРИНИНГ КЎРКИ

Дунёдаги машҳур от зотлари орасида қорабайирнинг алоҳида ўрни бор. Ўз вақтида хитойликлар қўлга киритишни орзу қилган «самовий отлар»нинг авлоди. Турк ҳоқонлиги, Сомонийлар империялари, Те-мурийлар салтанатининг



бунёд этилишида муҳим аҳамиятга эга бўлган.

Қорабайир жангу жадалларга, қишлоқ хўжалиги, қурилиш ишларига мослаштирилган. У салт минилган, аравага қўшилган. Айғирларининг ба-

ландлиги 152 сантиметргача бўлади. Қорабайир улоқ-кўпкарида чидамлилиги, бақувватлиги, чаққонлиги билан бошқа от зотларидан устунлик қилади.

ХУЛОСА ЎРНИДА

Машҳур саркарда Искандар Мақдунийнинг Буцефал номли оти ҳақида кўплаб маълумотлар бор. Ривоят қилинишича, Буцефал фақат Искандарга бўйсунган ва жангларда уни бир неча бор ҳалокатдан қутқарган. От ҳалок бўлганида, саркарда унинг номи билан аталган шахар барпо этгани нақл қилинади.

Марказий Осиё халқлари маданиятида от эркинлик, жасорат ва шараф рамзи ҳисобланган. Қадимги кўчманчи халқлар учун отсиз ҳаётни тасаввур қилиш қийин эди. Улар отни нафақат транспорт воситаси, балки ҳаёт манбаи деб билган.

Дунёга машҳур от зотлари бу фақат наслчилик ютуғи эмас, балки инсоният тарихи билан узвий боғлиқ меросдир. От инсонга минг йиллар давомида хизмат қилиб келмоқда. У жангларда ғалабага, сафарларда манзилга, спортда эса рекордларга етаклаган. Шу боис машҳур от зотлари ҳақидаги ҳар бир маълумот инсоният цивилизацияси тарихи ҳақидаги билимларимизни янада бойитади.

**Абдурахмон
МУСТАФОҲУЛОВ**
тайёрлади.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Adolat FAYZIYEVA
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;
Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 667.
Bosilish — ofset usulida.
Bichimi — A3.
Hajmi — 6 bosma taboq.
49598 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda — 180.
Tashkilotlar uchun — 366.
Bosishga topshirish vaqti — 22.00.
Bosishga topshirildi — 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.